



Лазиза МУХАММАДИЕВА,
Навоий Давлат Педагогика институти
“Тарих” кафедраси докторанти
E-mail: laziza0507@mail.ru

Навоий ВХТҲҚТМОҲ маркази, f.f.d (PhD) Ж.Н.Пулатов тақризи асосида

**GENERAL CHARACTERISTICS OF TURKISH CENTURY PRESS
(ON THE EXAMPLE OF SOVIET PUBLICATIONS)**

Abstract

This article discusses the main features of Soviet periodicals in the Turkestan ASSR. Also, a number of measures taken by the Soviet government to organize the periodical press in the country are disclosed on the basis of information contained in various sources and literature.

Keywords: Turkestan ASSR, Soviet government, Soviet periodicals, periodicals, newspapers and magazines, periodicals.

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТУРЕЦКОЙ ВЕКОВОЙ ПРЕССЫ (НА ПРИМЕРЕ СОВЕТСКИХ ИЗДАНИЙ)

Аннотация

В данной статье рассмотрены основные особенности советской периодики в Туркестанской АССР. Также ряд мер, предпринятых советским правительством по организации периодической печати в стране, раскрывается на основе информации, содержащейся в различных источниках и литературе.

Ключевые слова: Туркестанской АССР, советское правительство, советская периодика, периодическая печать, газеты и журналы, периодические издания.

**ТУРКИСТОН АССР ДАВРИЙ МАТБУОТИНИНГ УМУМИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ (СОВЕТ НАШРЛАРИ
МИСОЛИДА)**

Аннотация

Ушбу маколада Туркистон АССРдаги совет даврий нашрларининг асосий хусусиятлари ўрганиб чиқилган. Шунингдек, совет хукуматининг ўлкада даврий нашрларни ташкил қилиш борасида олиб борган катор чора-тадбирлари турли маңба ва адабиётлардаги маълумотлар асосида очиб берилган.

Калил сўзлар: Туркистон АССР, совет хукумати, совет даврий нашрлари, даврий матбуот, газета ва журналлар, даврий нашрлар.

Кириш. Совет хукумати Туркистон худудида хукумронлигини ўрнатгач, ўлкада ўз даврий нашрларини ташкил қилишга алоҳида эътибор қаратди. Боиси вақтли матбуот большевистик фоялар ва коммунистик мағкуруни тарғиб этишининг асосий жарчиси бўлиши лозим эди.

Совет матбуот органларини уларнинг мазмун ва моҳиятига кўра икки гурухга ажратиш мумкин:

1. Республика ва маҳаллий партия ҳамда совет идораларининг матбуот органлари;
2. Ҳарбий-даврий нашрлар.

Совет даврий нашрларининг салмоқли қисми биринчи гурухга мансуб бўлган. Улар орасида журнallар учнчалик кўп бўлмаса-да, аммо газеталар сони анча кўп бўлган. Ушбу газеталарни республика ҳамда маҳаллий (вилоят, шаҳар ва туман) газеталарга бўлиш мумкин.

- **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review).** Шўро хукумати Туркистонда ўз даврий нашрларини ташкил этиш мақсадида бир қатор тадбирларни амалга ошириди. Биринчи навбатда В.Ленин томонидан 1917 йил 27 октябр (9 ноябрь)да қабул қилинган “Матбуот тўғрисида”ги Декретда^[1] белгиланган вазифалар зудлик билан бажарила бошланди. Ушбу Декретда Ишчи-дехқон хукумати сиёсатига очиқдан-очиқ каршилик кўрсатишга ёки бўйсунмасликка ундаётган мақолалар нашр қилинаётган даврий нашрлар ёпилиши белгилаб кўйилди. Шундан келиб чиқиб 1917 йилда “Туркестанский вестник”, “Туркестанский курьер” газеталари, 1918 йилдан маҳаллий тилда нашр қилинган “Ал-ислоҳ”, Ал-изоҳ” журналлари фаoliyati тўхтатилди.

Кези келганда айтиб ўтиш керак советлар даврий нашрларга ўз фояларини тарғиб қилишда асосий курол сифатида қарашди. Буни 1917 йил октябрь ойидадаёқ уларнинг ҳафтасига 3,5 млн нусхада нашр қилинганини хам исботлаб туриби. Ушбу даврий нашрларнинг барчаси ўз саҳифасида совет давлатининг асосий фояларини фаол оммалаштиришга зўр бериб ҳаракат қилди. Туркбюоронинг 1922 йил 6 марта бўлиб ўтган мажлисида совет даврий нашрларининг фоявий жиҳатдан янада бойитиш масаласини ТАССРда маъсул лавозимларда ишлаган Сергей Гусев (Яков Драбкин) алоҳида уқтириб ўтди. Бўлиб ўтган мажлис карори асосида Тошкент худудидаги барча даврий нашрлар назорати Туркистон Компартияси Марказий Комитети зиммасига юкланган бўлса, унинг жойлардаги бўлимлари вилоят газета ва журналлари фаoliyati назорат қила бошлади.

- **Тадқиқот методологияси (Research Methodology).** Совет даврий нашрларини Туркистон АССРда кенг жорий қилишда Туркбюро аъзоси С.Гусев алоҳида роль ўйнади. Унинг “Коммунист” газетасида чоп қилинган “Партия аъзоларини марксча тарбиялаш” мақоласида хам совет даврий нашрлари ўлкада коммунистик фояларни ёйища муҳим аҳамиятга эга эканлигини таъкидлаб ўтади^[2]. Умуман ушбу шахс барча мақолаларида совет даврий нашрларининг коммунистик жамиятдаги ўрни масаласига мурожаат қилганини кўриш мумкин. Шу боис 1923 йилдан бевосита В.Лениннинг кўрсатмаси асосида РСФСР Коммунистик Партияси МК матбуот бўлими мудири лавозимига сайланади.

Туркистон АССРда совет даврий нашрларини кенг ташкил қилиш масаласини кўтариб чиқканлардан яна

бири РСФСР ХКС Туркистан ишлари бўйича комиссияси раиси А.Иоффе бўлиб, “Коммунист” ва “Инқилоб” журналларида совет даврий нашрларининг ахволига алоҳида тўхталади[3].

П.Н.Лепешинский ҳам Туркистанда совет даврий нашрларини ташкил этишининг фаол ташкилотчиларидан хисобланган. Хусусан, 1920 йилдан Тошкентда чиқа бошлаган “Вестник просвещения и коммунистической культуры” журналининг асосчиси ва дастлабки мухарирларидан бири хисобланади. П.Н.Лепешинский журналнинг олтига сонини нашр қилинишида иштирок этиб, ҳар бир сони икки минг нусхадан чоп этилган. Журналда асосан ўлқадаги ленинча миллий сиёсат, коммунистик маданият курилиш масалаларига оид материаллар бериб борилган.

Бирор шуни айтиш жоизки, совет даврий нашрларининг 1918-1924 йиллардаги фаолияти даврида уларнинг ғоявий тарғиботи ўлка маҳаллий ахолиси орасида у қадар кутилган натижани бермади.

Большевистик ҳукумат ўлқадаги маҳаллий ахолини ўз ғояларига кенгрок жалб қилиш максадида маҳаллий тилларда ҳам даврий нашрларни чоп қила бошлади. Улардан бири 1919 йилдан Кўкон ишчи-аскар мусулмон депутатлари Совети томонидан нашр қилина бошлаган “Халқ” газетаси хисобланади. Ушбу газета Фарғона водийси маҳаллий ахолиси орасида коммунистича ғояларни фаол тарғиб қилишда алоҳида ажралиб турди.

Туркистан АССРда ленинча миллий сиёсат моҳиятини маҳаллий ахоли орасида кенг тарғиб қилишга йўналтирилган совет даврий нашрларидан бири “Коммунист” журнали хисобланаби, унинг биринчи сони 1921 йил 1 февралдан нашр қилина бошлаган. Журнал бевосита Туркистан Коммунистик партияси Марказий Комитетининг нашри хисобланаби, партиянинг ўлкада олиб бораётган ишларини маҳаллий тилда ёритиб борган.

“Инқилоб” журнали Совет ҳукумати ғоявий назарияларини, улар томонидан амалга оширилётган ишлар, Туркистан жамиятида бўлаётган ўзгаришларни ёритиб боришини атрофлича қамраб олишга мўлжалланган маҳаллий тилдаги илк нашрлардан хисобланаби, журнал 1922 йил февралдан нашрдан чиқа бошлаган. Унинг нашр қилинишида маҳаллий коммунистлардан Назир Тўракулов мухим роль ўйнади. Н.Тўракуловнинг ўзи ҳам журналда бир қатор мақолаларни эълон қилиб борганигини кўриш мумкин.

- **Тахлил ва натижалар (Analysis and results).** Ўрнида айтиш керак, маҳаллий тилларда чоп қилинган совет даврий нашрларининг XX аср 20-йилларида асосий хусусияти Туркистан ўлқасидаги миллий истиқполчилик (“босмачилик”) харакати, унинг етакчиларини обрўсизлантириш, кўрбошиларнинг ватан озодлиги йўлидаги ишларига босқинчилик, талончилик тусини бериб маҳаллий ахолини ўз томонларига оғдиришда мухим курол вазифасини бажариб берганлиги билан характерланади[4].

Туркистан АССРда маҳаллий совет нашрларининг ташкил қилинишидаги яна бир жиҳат большевиклар ўлка

маҳаллий ахолисига тил, маданият ва урф-одати якин бўлган бошқа миллат вакиллари хизматидан ҳам ўз ўрнида фойдаланди. Ана шундай шахслардан бири татар миллати вакили Қосим Сорокин эди[5]. Унинг раҳбарлиги ва бевосита иштирокида ТАССРда бир қатор совет нашрлари фаолияти йўлга кўйилди. “Инқилоб”, Фарғона-да нашр қилинган “Янги Шарқ”, “Фарғона”, “Қизил байрок”, “Туркистан” ва бошқалар шулар жумласидан.

Қосим Сорокин 1923 йил январдан ионгача “Коммунистлар йўлдоши” журнали мухаррири лавозимида фаолият олиб борди. У Туркистан АССРдаги маҳаллий деҳқонларнинг дастлабки нашри бўлган “Янги қишлоқ” журналини ташкил қилиниша фаол иштирок этди.

Шу ўринда таъкидлаш керак, Қосим Сорокин кейинги даврларда совет матбуот тизимида қатор масъул лавозимларда жонбозлик билан фаолият юритмасин, барibir Совет давлати унинг хизматларини эътиборга олмади. 1937 йил бир қатор сиёсий айбловлар билан олий жазо - отувга ҳукм қилинди.

Қосим Сорокиндан ташқари В.Галямов, А.Донской ва бошқалар ўлкада маҳаллий совет матбуотининг ташкил қилинишида катта роль ўйнади.

Туркистан АССРда совет даврий матбуотининг ташкил қилинишида бошқа худудлардаги матбуот нашрлари ҳам бир қадар ўринга эга бўлди. Хусусан, иктисодий йўналишдаги совет нашрларининг шаклланишида Москва, Петроград, Харков, Боку ва бошқа шаҳарлардаги матбуот нашрлари мухим роль ўйнади[6]. “Экономическая жизнь”, “Народное хозяйство”, “Новый путь” ва бошқа журналлар шулар жумласидан.

Ўлкада совет даврий нашрларининг ўрганилаётган даврдаги энг катта муаммоларидан бири полиграфия ва ноширилик иши билан боғлиқ масалалар ташкил этган. Совет ҳукумати Туркистан худудида ушбу соҳадаги муаммоларни бартараф килмасдан большевистик матбуотни кенг йўлга кўйиш кийин эканлигини англаб, соҳада қатор ишларни амалга ошириди. Масалан, 1920 йилда Тошкентга 32 та типографик, литографик ва бошқа техникалар келтирилди. Бундан ташқари 1920 йил май оидан август қадар Туркистанга 20 вагон қоғоз ҳам юборилган[7].

- **Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations).** Хулоса ўрнида айтиш керак, большевиклар етакчилигидаги Совет давлати Туркистан худудида ўз хокимиятини ўрнатган дастлабки йилларданоқ ўлка маҳаллий ахолисини ўз тарафига оғдириш, уларнинг кўллаб-куvvatлашига эришиш максадида тарғибот-ташвиқот ишларига катта эътибор қаратди. Бунда даврий нашрлар асосий ўрин эгаллади.

Большевиклар томонидан Туркистан АССРда ташкил қилинган совет даврий нашрлари маҳаллий ахолини коммунистича руҳда тарбиялаш, сиёйлик тамоилиларини улар онгига чукур киритиб боришига хизмат килди. Бу жихат Туркистандаги совет даврий нашрларининг 1918-1924 йиллардаги умумий хусусиятларидан бири эди.

АДАБИЁТЛАР

- Атаджанов А.Р. Организация и деятельность рабоче-крестьянской инспекции Туркестанской АССР (1920-1924 гг): дисс.... канд. ист. наук. – Т., 1966. – С. 172.
- Эрназаров Т. Туркистанда вакъти матбуот (1870-1924 йиллар). – Т: ЎЗДАВНАШР, 1959. – Б. 128.
- Декреты Советской власти. Т.1. – М: Гос.изд-во полит.литературы, 1957. – С. 24-25
- Гусев С. Марксистское воспитание членов партии // Коммунист. – № 2. – 1922. – С. 56.
- Иоффе А. 1921-1922 // Коммунист. – № 5. – 1922. – С. 2.
- Коммунист. – № 5. – 1922. – С. 2.
- ЎзМА, Р-409-фонд, 1-рўйхат, 13-иш, 100-варак.
- Эрназаров Т. Расцвет народной печати в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1968. – С. 50.
- Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т: Шарқ, 2000. – С. 399.



Mirjalol QOSIMOV,
O'zMU Manbashunoslik va arxivshunoslik kafedrasini o'qituvchisi
E-mail: mirqosimov1707@gmail.com

Shon-sharaf davlat muzeyi katta ilmiy xodimi H. Babajonov taqrizi asosida

PARTICIPATION OF UZBEK PARTISAN IN THE LIBERATION OF THE TERRITORY OF THE FORMER SOVIET UNION

Annotation

The article focuses on the partisan movement, one of the most important aspects of the war after Nazi Germany invaded the USSR, analyzing the activities of Uzbek fighters who took part in the resistance in the partisan units in the western regions of the Byelorussian SSR, Ukrainian SSR, Moldavian SSR and RSFSR through sources and literature published in various periods. The article also reveals the heroism of former Uzbek fugitives who joined partisan units in the USSR.

Keywords: World War II, USSR, Heroes of the Soviet Union, M. Topiboldiyev, partisan detachments, "Partisan Medal" of the Patriotic War, railway war.

УЧАСТИЕ УЗБЕКСКИХ ПАРТИЗАНОВ ЗА ОСВОБОЖДЕНИЕ ТЕРРИТОРИИ БЫВШЕГО СОЮЗА

Аннотация

В данной статье, посвященной партизанскому движению, ставшему одним из важнейших фронтов войны после вторжения фашистской Германии на территорию СССР, проанализирована деятельность узбекских бойцов, принимавших участие в движении сопротивления в партизанских отрядах Белорусской ССР, Украинской ССР, Молдавской ССР и западных областей РСФСР с помощью источников и литературы, опубликованной в разное время. В статье раскрывается их героизм, а также включение в состав партизанских отрядов на территории СССР бывших бойцов, бежавших из узбекского плена.

Ключевые слова: Вторая Мировая война, СССР, Герой Советского Союза М.Топиболдиев, партизанские отряды, медаль "Партизан Отечественной войны", железнодорожная война.

O'ZBEKİSTONLIK PARTİZANLARNING SOBIQ ITTIFOQ HUĐUDINI OZOD ETİSHDAGI ISHTIROKİ

Annotatsiya

Mazkur maqola fashistlar Germaniyasining SSSR hududiga bostirib kirganidan keyin urushning muhim jahbalaridan biri bo'lgan partizanlik harakatiga bag'shlangan bo'lib, Belorussiya SSR, Ukraina SSR va RSFSRning g'arbiy viloyatlaridagi partizanlik bo'linmalarida qarshilik harakatida ishtirok etgan o'zbekistonlik jangchilar faoliyati manbaalar va turli davrda chop etilgan adabiyotlar orqali tahlil qilingan. Maqolada SSSR hududidagi partizanlik bo'linmalarini tarkibiga o'zbekistonlik asirlikdan qo'chgan sobiq jangchilarining qo'shilishi ham ularning qahramonliklari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ikkinci Jahon urushi, SSSR, Sovet Ittifoqi Qahramoni M. Topiboldiyev, partizan otryadlari, "Vatan urushi partizani" medali, temiryo'l urushi.

Kirish. Ikkinci jahon urushi dunyo xalqlari boshiga ulkan fojealar olib keldi. Sobiq Ittifoqning bir bo'lagi sifatida ushbu qirg'inbarot urush girdobiga bevosita tortilgan. Fashistlar Germaniyasining urush e'lon qilmasdan shiddat bilan hujum qilishi natijasida urushning dastlabgi oyalarida SSSR ning g'arbiy hududlari va u yerda joylashgan harbiy qismlar katta talofat ko'rgan. Ming-minglab sovet jangchilar dashman tomonidan asir olingan. Asirlikdan qo'chgan jangchilar hamda bosib olingan hududlardagi dashman qurshovini yorib chiqqan askarlardan ilk partizan otryadlari tashkil topa boshlagan. Ushbu partizan otryadlari safida minglab o'zbekistonlik jangchilar ham ishtirok etib, Ikkinci Jahon urushining ushbu jabhasida o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sobiq Ittifoq hududidagi partizanlik harakati safidagi o'zbekistonlik faoliyatini o'rganish statistic sharhlari, xorij tarixchilarini va mahalliy tarixchilar asarlari birlamchi manbalar bo'lib xizmat qiladi. Bu manbalarda o'zbekistonlik jangchilarining partizan otryadlari safiga kelib qo'shilishi, harbiy harakatlardagi faoliyati keltirilgan. Shuningdek, T.D. Djurayev (1975), Y. I. Bakman (1974), M. Rahimov (1989) kabi mualliflar o'z tadqiqotlarida o'zbekistonlik jangchilarining partizanlik harakatidagi faoliyatiga to'xtalib o'tgan bo'lib, masalan ayrim jihatlari haqida muhim ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda qiyosiy tahlil, muammoviy va miqdoriy tahlil, tizimlik jamlash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ikkinci Jahon urushi yillarida SSSR hududidagi partizanlik harakatida o'zbekistonlik jangchilarining faoliyati davr manbalari va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Germaniya tomonidan bosib olingan Belorussiya SSR, Ukraina SSR, RSFSR va Boltiqbo'y'i respublikalari hududidagi partizanlik tashkilotlari safida o'zbekistonlik minglab partizanlik dushmaniga qarshi janglarda ishtirok etib, g'alabaga bo'lgan o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Dushman hujuming kutilmaganda va juda tezkor amalga oshishi natijasida Sovet Ittifoqi o'z hududi va qo'shinlarining katta qismini urushning dastlabki uch-to'rt oyida yo'qotdi. Qurshovni yorib chiqqan yoki dashman asirligidan qo'chgan sobiq askarlar tomonidan urushning dastlabki kunlaridanoq partizanlik tashkilotlari tuzila boshlandi. Birgina Belorussiya hududida 1941-yilning oxiriga qadar 7200 jangchini o'zida birlashtirgan 437 ta partizanlik otryadlari tashkil etilgan edi[1]. Partizanlarning dastlabki harakatlari shunchalik ta'sirli chiqdi-ki, nemis qo'shinlari hatto Belorussiya o'rmonlariga kirishga qo'rqiб qolishdi. Uchinchi reyx askari yefreytor Verner Kaufman va Valter Vemening 1941-yil 9-iyulida xotiniga yozgan maktubida "O'rmonqa yolg'iz yoki harbiy texnikasiz kirish bu o'lim

bilan barobar ekanligi, partizanlar har yerda ularga katta ziyon keltirayotganligini" yozgan[2].

Belorussiya SSR ning Belinichesk va Berizinsk viloyatlari hududida polkovnik Nichiporovich rahbarligidagi 2000 kishidan iborat bo'lgan partizanlik otryadi urushning dastlabki kunlarda dushmanga ko'plab zarbalar bergan. Ushbu otryad tarkibida o'zbekistonlik jangchilardan Tursun Islomov bor edi. T. Islomov 1940-yil armiya safiga chaqirilgan. Urushga qadar G'arbiy Belorussiyadagi 102-otliq polkda xizmat qilgan. Baranovich viloyatidagi janglar natijasida qurshovni yorib chiqib Mesten qishlog'i hududida faoliyat olib borayotgan partizanlar safiga qo'shiladi. U harakat qilgan qism Mogilov – Berizina – Borisov – Orsha viloyatlari hududida dushmanga qarshi ko'prikl, temir yo'l va avtomobil yo'llarida urush olib bordi. Ushbu janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun T. Islomov hukumat tomonidan "Vatan urushi" ordenining 1-darajasi hamda "Vatan urushi partizani" medalining 1-darajasi bilan mukofotlangan[3].

Belorussiyadagi partizanlar orasida rishtonlik partizan Mamadali Topiboldiyev (1919-1965-yy.) nomi anchayin mashhur bo'lgan. M. Topiboldiyev 1939-yil harbiy xizmatga chaqiriladi. Belorussiya uchun bo'lgan janglarning birida og'ir yarador bo'lgan M. Topiboldiyev mahalliy aholi tomonidan parvarishlanib, oyoqqa turg'izilgan. Shundan keyin u 1942-yilning 28-mayda Grigoriy Aleksey Kirpich tomonidan tashkil etilgan "Chekist" partizan brigadasi tarkibidagi Aleksandr Feodarovich Semidyankin rahbarligidagi 5-ortyad tarkibiga a'zo bo'lib kiradi. Ushbu ortyad Kruglyansk, Tolochinsk va Orsha viloyatlari hududida janglar olib boradi. Partizanlik faoliyati davomida "Kazbek" laqabi ostida M. Topiboldiyev 67 ta nemis askarini yo'q qilib, 180 tasini asirga olgan. Shuningdek uning qayd varaqasida dushmanning 6 avtomashini hamda butun bir eshelonini yo'q qilganligi yozilgan. U dushmanning 7 ta muhim ma'lumotlarini qo'liga kiritib Markaziy qo'mondonlikka ma'lum qilgan[4]. Janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun Mamadali Topiboldiyev "Qizil Yulduz" ordeni, "Jasurligi uchun" medali, "Vatan urushining partizani" medali bilan mukofotlangan[5]. Mamadali Topiboldiyev 1944-yilning 15-avgustida SSSR Oliy Soveti tomonidan "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan[6].

Shuningdek ushbu otryad tarkibida buxorolik G'appor Sultonov nomi ham mashhur bo'lgan. 1942-yilning 18-iyunida u dushmanning katta miqdordagi texnikasi va askarlar ortilgan eshelonlarini portlatib yuboradi. Ushbu voqeaga qadar G'. Sultonov 370 ta nemis ofitseri va askarlarini yo'q qilgan. [7] Ayniqsa, uning 1943-yil fevralida Rechki va Rudni qishloqlarida dushmanga qarshi urushlari mashhur bo'lib ketgan. Og'ir yarador bo'lishiga qaramasdan dushmanning 20 tasiga qarshi yakka o'zi jang olib borib, quroldosh do'stlarini yo'qtishlarsiz chekinishiga imkoniyat yaratib beradi. Ammo uning o'zi ushbu jangda mardlarcha halok bo'ladı. G'. Sultonov janglardagi ko'rsatgan jasoratlari uchun "Lenin" va "Qizil Yulduz" ordenalari bilan mukofotlangan [8].

Minsk partizanlik brigadasining "Budyonin" otryadi Belorussiyadagi eng mashhur partizanlik qismlaridan biri hisoblangan. Uning tarkibida ko'plab o'zbekistonliklar dushmanga qarshi janglarda ishtirot etganlar. Mana shunday jangchilardan biri 1919-yilda Oltinko'l tumanida (Andijon viloyati) tug'ilgan Abdumajid Davronovdir. A.Davronov 1939-yildan boshlab armiya safida xizmat qilgan. Urushga qadar Qozondagi 18-o'qchi dviziyaning 97-polkida xizmat qilgan. Urushga Belorussiyaning Orsha shahrida kiradi va Dnepr davryosi bo'yidagi janglarda og'ir yaralanadi. Yefrosiniya Vasilevna tomonidan topib olinib, oyoqqa turg'izilgach Kukola o'rmonlaridagi V.A.Cherkasov rahbarligidagi "Budyonin" otryadi tarkibiga borib qo'shiladi. Belorussiya va Litvadagi temir yo'l urushida ishtirot etadi. "Sibiryak" va "Vpervyod" partizan brigadalri safida Lida – Molodechka temir yo'l yo'nalishida hamda Gorodno

shahridagi temir yo'l liniyalaridagi qo'poruvchilik ishlari ko'rsatgan jasoratlari uchun A.Davronov 2-darajali "Vatan urushi" ordeni va 1-daaraiali "Vatan urushi partizani" medali bilan mukofotlangan. Urushdan qaytgach savdo majmualarda bo'lim boshlig'i vazifasida ishlab 1978-yilda nafaqaga chiqadi[9].

1942-1943-yilda Belorussiya hududida partizanlar tomonidan "Temir yo'l" urushi amalga oshirildi. Partizanlar dushmanning oziq-ovqat, qurol-yarog' va askarlar ortilgan eshelonlariga tinimsiz hujumlar amalga oshirib, ularga juda katta talafotlarga yetkazdi. Gomel atrofidagi urushlarda o'zbekistonlik partizanlardan Jonibek Otaboyevning jasorat ko'rsatdi[10]. 1942-yil iyulda J.Otaboyev "Mistitel" partisan otryadi tarkibiga qo'shiladi. 1942-yilning oxiriga qadar J.Otaboyev dushmanning 100 dan ziyyod askar va ofitsерlarini yo'q qilgan. 1942-yilning dekabrida Rechitsa – Xoyniki yo'lida dushmanning 5 ta mashinasini va 17 ta ofitser soldatini bir o'zi yakson qiladi. Ayniqsa Xolmech, Makanova va Zapse viloyatlaridagi dushman eshelonlariga hujumi J.Otaboyevni Belorussiya partizanları orasida mashhur qilib yubordi. J.Otaboyev 1943-1944-yillarda bиринчи va иккинчи darajali "Vatan urushi partizani" medali hamda 1948-yil 30-dekabrda SSSR Oliy Soveti tomonidan "Qizil Yulduz ordeni" bilan mukofotlangan. Belorussiyadagi "Temir yo'l urushi" o'zbekistonliklardan bиринчи иккинчи darajali "Vatan urushi" ordeni hamda bиринчи darajali "Vatan urushi partizani" medali bilan mukofotlangan Otajon Hoshimov, Dehqonboy Qosimov, A.Axmedov va Abdullayevlar ishtirot etishgan.

Belorussiyada yana bir dong taratgan o'zbekistonlik partizan toshkentlik G'anitoy Toshniyozovdir. "Razgrom" partizan brigadasi "Iskra" otryadi tarkibida jang qilgan G'. Toshniyozov Belorussiya xalqi xotirasida abadiy joy olgan. Urushgacha Belorussiyaning g'arbiy hududlarida armiya safida bo'lib, urushning bиринчи kunidayoq dushman bilan to'qnash keladi. Og'ir janglar natijasida dushman qurshovini yorib chiqadi. 1942-yilning mayida Belorussiya Rovanich o'rmonlarida toshkentlik Vladimir Deryabin rahbarligida 18 kishidan iborat bo'lgan "Iskra" otryadini tashkil etadi [11]. Ushbu ortyadning qo'poruvchilar guruhibi rahbarlik qilgan G'. Toshniyozov 1942-yilning mayidan – 1944-yilning fevraliga qadar dushmanning 456 ta ofitser va askarlarini yo'q qilib, 7 marta markaz tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. Belorussiya ozod bo'lish arafasida 1944-yilning 9-fevralida G'. Toshniyozov bir guruh belorus dizerterlari hamda nemis politsiyasi bilan bo'lgan jangda og'ir yaralanib, dushman qo'liga asir tushmaslik uchun o'zini otib tashlaydi. Janglardagi ko'rsatgan qahramonliklari uchun G'. Toshniyozov bиринчи darajali "Vatan urushi" ordeni, "Jasorati uchun" va иккинчи darajali "Vatan urushi partizani" medali bilan mukofotlangan. Ushbu otryad tarkibida o'zbekistonliklardan Nosir Hasanov andijonlik Mamayoqub Xoliqov (1944-yilning aprelida halok bo'lgan), Otabay Otaliyev, Vali Bashirov, va Muxtor Galiyevlar janglarda faol ishtirot etadi [12]. Janglarda N.Husanov dushmanning 3 ta esheloni, 2 ta garnizoni, 12 ta qorovullik punkti, 12 ta avtomashina, 516 ta temir yo'l relsi va 278 ta ofitser va zabitlarini yakson qilgan [13].

Ikkinchi Jahon urushi yillarida partizanlik harakatining SSSR hududidagi yana bir muhim markazi Ukraina SSR edi. Ukrainaning Jitomir viloyati hududida A.N.Saburov rahbarligida 1941-yilning oktabrda tashkil etilgan "Qizil Armiyaning yigirma to'rt yilligi" partizanlik brigadasi tarkibida o'zbekistonliklardan Rahim Elmuratov katta jasorat ko'rsatgan. Uning bir o'zi dushmanning 33 askari va texnikasini ishdan chiqardi. Ushbu jangda "Stalin" nomli partizan otryadi a'zosi chirchiqlik Qurbon Andaqulov bir o'zi dushmanning 25 askarini o'ldirdi [14].

A.N.Saburov o'zining esdaliklarida 1942-yildagi janglarda o'zbekistonlik Sh.Abdurahmonovning jasoratlarini alohida qayd etgan. Sumsk shahri atroflarida va Mefedovka

qishlog‘idagi janglarda Sh. Abdurahmonov dushman kuchlariga jiddiz zarbalar beradi. Sh. Abdurahmonov do‘siti rus Larionov bilan birlgilikda otryadning razvedka guruhiga rahbarlik qilgan [15].

Ukrainadagi partizalar orasida “Qora shayton” nomi bilan tanilib, dushmaniga qo‘rquv solgan Meliboy Rajabov 1939-yilda Andijon viloyati Paxtaobod tumanidan harbiy xizmatga chaqiriladi. Urushga qadar Ukraina hududida armiya xizmatida bo‘lgan. Janglarning birida qism komandiri halok bo‘lgach, harbiy qismni qurshovdan olib chiqadi. Qo‘l ostidagi askarlardan iborat partizanlik otryadini tuzadi. 1942-yilning fevralida “Oktyabr” partizan otryadi tarkibiga qo‘shiladi va otryad rahbarining o‘rnibosariga aylanadi. M.Rajabov Novogrudok sahri va Neman daryosi havzasida nemis bosqinchilariga qarshi jangler olib boradi [16].

General-major M.I.Naumov rahbarligidagi partizan brigadasining otryadlari orasida o‘zaro aloqalarni ta‘minlash hamda dushman tomonida razvedka ishlarini olib borish ishlariga samarqandlik Oleg Antonovich alohida jonbozlik ko‘rsatdi. 1941-yilda harbiy xizmatga chaqiriladi. 1942-yilda jangda yaralanib Samarqandga qaytib keladi. Partizanlik harakatining Mrakaziy shtabi bilan aloqa o‘rnatib, 1942-1943-yillarda Moskvada razvedkachilar maxsus kursida tahsil oladi. 1943-yildan boshlab A.P.Grishenko rahbarligidagi ikkinchi “Fashistlarga o‘lim” partizan otryadiga razvedkachi-alochachi bo‘lib joylashadi [17].

Ukrainadagi partizanlik harakatinining yana bir mohir aloqchisi surxondayolik Yevdoki (Dusi) Bogatirreva edi. Urushga qadar Samarqanddagagi ipak fabrikasida ishlagan Yevdoki urushga ko‘ngilli bo‘lib Ukraina frontiga jo‘naydi. U Janubiy front, Ukrainianadagi partizanlik qismlari va front chizig‘i orasida aloqachi bo‘lib xizmat qilgan. 1943-yilning 14-mayida Donbas shahrida bo‘lgan janglarning birida halok bo‘lgan. Unga atab Donbas shahrida xotira yodgorligi majmuasi o‘rnatalgan.

S.A.Kovpak qo‘mondonligidagi birinchi Ukraina partizanlik dviziysi tarkibida yuzlab o‘zbekistonliklar dushmaniga Ukrainianing ozodligiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Ayniqsa, 1943-yilning mayida Dnepr daryosi bo‘yidagi nemis tanklariga qarshi urushda shaxsan dviziya rahbari S.A.Kovpak nazariga tushadi [18]. S.Xayitaliyev “Qizil Yulduz” ordeni va birinchi darajali “Vatan urushi partizani” medali bilan taqdirlangan. 1944-yil 5-iyunda S.A.Kovpak buyrug‘i bilan dviziyaning 1-rota 3-polkiga komandir etib tayinlangan.

Volin viloyatidagi S.A.Feodorov rahbarligidagi partizanlik harakatida otliqlar eskadroni komandiri namanganlik Aleksandr Grigorevich Stepanov 1944-yilning 27-martida qahramonlarcha halok bo‘lgan [19].

Ukrainaning g‘arbiy viloyatlari, Polshaning janubiy tumanlarida, Karpat tog‘lari va Chexoslovakiya hududlarida harakat qilgan Mixail Ivanovich Shukayev rahbarligidagi partizan brigadasi 1944-yilda Qizil Armiya hujmni kuchaytirgach dushman qo‘shinlarining chekinishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsida dushmanqa qaqshatqich zarbalar bera boshladи. Ushbu janglarda o‘zbekistonliklardan vzvod komandiri Toshboy Ochilov, rota starshinası Dusanboy Ergashev, Umarali Akbarov, Vali Qodiriv, Chori Jo‘rayev, Mamadisa Madiyorov, Rahmon Uzoqov, Salayjon Tashmurodov, Boyaxmat Toshmatov, Xaitboy Axmedov (1944-yil 4-aprelda vafot etgan), Toshmirza Jabroilov (1944-yil 21-martda vafot etgan), Munir Sultonov (1944-yil 12-fevralda vafot etgan), Konaboy Chutbayev (1945-yilning yanvarida vafot etgan), Qirg‘izboy Tas temirov kabi ko‘plab o‘zbekistonliklar ishtirot etgan [20].

RSFSR ning dushman tomonidan bosib olingan g‘arbiy hududlaridagi parizanlik harakati saflarida ko‘plab yurtdoshlarimiz ishtirot etganlar. Partizanlik harakatineng

avj olgan nuqtasi Leningrad viloyati hududidi edi. Urushning birinchi yilida Leningrad hududida 13 ta partizanlik otryadlari tashkil topadi. Ular tartib raqami bilin birinchi, ikkinchi holatida nomlangan.

N.P.Buyinov qo‘mondonligidagi 1-Leningrad partizan brigadasi tarkibida o‘zbekistonliklardan tatar Ayub Xalilovich Abubakirov, rus Mixail Aleksandrovich Pridanin, tatar Xafiz Fazilovich Faktliyev, rus Aleksandr Naumovich Fedichkinlar xizmat qilgan. A.X.Ahubakirov 1942-yilda Qrim uchun bo‘lgan janglarda dushman tomonidan asiga olingan. Asirlikdan qochib 1943-yilning 30-sentabrida partizanlar safiga borib qo‘shiladi. X.F.Faktliyev janglarda asirlikka tushib, dastlab Varshavadagi, so‘ngra Pskovdagi nemis ishchi batalonida xizmat qilgan. 1943-yilning 28-sentabrida asirlikdan qochib, partizanlar safiga borib qo‘shiladi. 1944-yilning 25-fevralida Porxov tumani Borashko qishlog‘ida bo‘lgan jangda halok bo‘lgan. Otryad komandiri bo‘lgan A.N.Fedichkin 1944-yilning 27-fevralida Martino aholi punktidagi bo‘lgan janglarda qahramonlarcha halok bo‘lgan [21].

A.V.German rahbarligidagi 3-Leningrad partizanlik brigadasi tarkibida Axmed Nurmuhammedovich Siddiqov, Vasilii Flippovich Ovchinnikov, V.S.Pakirov, Lukyanov Fedor Stepanovich, Intankin Viktor Petrovich, Iosif Semenovich Tarasov, Amir Jumanov va boshqa ko‘plab o‘zbekistonliklar faol ishtirot etgan.

Ayniqsa, ular orasida A.N.Siddiqov jasoratlari ajralib turadi. 1939-yilda Denov tumanidan armiyaga chaqirilgan A.Siddiqov Yaroslav shahridagi piyoda komandirlar o‘quv yurtida o‘qib, leytenant unvonini olgan. 1941-yilning avgustidan boshlab partizanlar safida jang qilishni boshlagan. 1942-yilning 10-fevralida uning komandirligi ostidagi otryad dushmanning 2 ta temiryo‘l ko‘prigi va 2 ta eshelonini portlatib, 350 ta nemis askarlarini qirib tashlaydi. Ushbu jasorati uchun A.Siddiqov “Qizil Bayroq” ordeni bilan mukofotlangan. 1942-yil 18-martida Dedovich tumanidagi Dno – Chixachev temiryo‘l yo‘nalishidagi ko‘priki, 31-martda Dedovich – Chixachev temiryo‘l punktini, 2-iyunda temiryo‘lda dushmanning harbiy esheloniga hujum uysutirib, 50 ta vagonni portlatib yuboradi. ko‘rsatgan jasoratlari uchun 1942-yilning 24-martida 1-darajali “Vatan urushi partizani” medali bilan mukofotlangan [22].

Smolensk viloyatida harakat qilgan “Trinadsat” partizanlik harakatida farg‘onalik Gulmirza Fayozov o‘chmas iz qoldirdi. Osavaximning 6 oylik kursinin bitirib leytenant unvoni bilan frontga safarbar etiladi. Jasurligi uchun vzvod rahbari lavozimini egallaydi. 1942-yilning oxirida dushman bilan bo‘lgam janglarda mardlarcha halok bo‘ladi [23]. 1972-yila Quvasoyda G.Fayozovga atab yodgorlik o‘rnatilib, o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloq ko‘chalaridan biriga uning nomi berilgan [24].

Shuning ushbu hududdagi qarshilik ko‘rsatish harakati safida M.Z.Slepakov rahbarligidagi partizan otryadi front chizig‘i ortida dushmanga sotilgan diversantlar, SS va Gestapo (maxfiy politsiya) qarshi kurash olib borgan.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonlik partizanlar Sovet Ittifoqi hududidagi deyarli har bir partizanlik brigadalarini tarkibida dushmanqa qarshি kurash olib borganlar. Ayniqsa, Stalin tomonidan №227-direkteva asosida 1942-yil 28-iyulda qabul qilingan “Ни шару назад!” buyrug‘idan keyin partizanlik harakati mamlakat bo‘ylab keng yoyiladi. Ushbu janglarda yurdoshlarimiz ko‘plab qurbanlar berildi. Janglarda ko‘rsatgan jasoratlari uchun ko‘plab jangchilarimiz hukumat orden va medallari bilan mukofotlandilar. 1944-yilga kelib Sovet dalati hududi butunlay ozod etilgach partizanlar harakatidagi armiya safiga qo‘shib olinadi. Ular Berlingacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdilar.

ADABIYOTLAR

1. Джураев Т.Д. В боях за советскую родину. Тошкент. Узбекистан, 1970. –С.240.
2. Бакман Я.И. Пламенные сердца. Ташкент. Ёш гвардия. 1974. –С.8.
3. Победа одна на всех Белорусь – Узбекистан. М., 2019. – С.29.
4. Ватан уруши қаҳрамонлари. Тошкент. Ўздавнашр. 1944. –Б.3.
5. Сайдолимов С., Рахимов М. ва бошқалар. Ўзбекистон халқининг фаизим устидан қозонилган ғалабага қўшган хиссаси. –ТОШКЕНТ. О'ZBEKISTON. 2020. – Б.88.
6. Джураев Т.Д. Верные сыны родины. Ташкент, 1964. –С. 412.
7. Узбекская ССР в годы великой Отечественной войны (1941 – 1945 гг.). Т.1. Ташкент. Фан. 1981. –С.365.
8. Джураев Т.Д. Узбекистанцы участники партизанской войны. Тошкент. Узбекистан, 1975. –С.47.
9. Рахимов М. Партизан сўқмоқлари. Тошкент. Ўзбекистон. 1989. –Б.67
10. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917 – 1991-yillar). Toshkent. Sharq. –В.178.
11. Дерябин В.П., Шербаков Г. А., Локтианов И.В. Литературно – художественный журнал партизанского отряда ““ИСКРА” бригады “Разгром”. – М. 1943. – С. 49-53
12. Пулатов И. Вклад трудаящихся Узбекистана к победу В Великой Отечественной иойне. Ташкент. Узбекистан. 1967. –С.84-85.
13. Джураев Т.Д. Узбекистанцы участники партизанской войны. Тошкент. Узбекистан, 1975. –С.90.
14. А.Н.Сабуров. Сыл неисчислимые. М., 1967. –С.148.
15. А.Н.Сабуров. За линией фронта. М., 1955. –С.319.
16. Рахимов М. Партизан сўқмоқлари. Тошкент. Ўзбекистон. 1989. –Б.75.
17. Бакман Я.И. Пламенные сердца. Ташкент. Ёш гвардия. 1974. –С.8.
18. Совет Ўзбекистони. 1974 й 11 январ.
19. Узбекская ССР в годы великой Отечественной войны (1941 – 1945 гг.). Т.3. Ташкент. Фан. 1985. –С.246.
20. Джураев Т.Д. Узбекистанцы участники партизанской войны. Тошкент. Узбекистан, 1975. –С.107.
21. Джураев Т.Д. Узбекистанцы участники партизанской войны. Тошкент. Узбекистан, 1975. –С.21.
22. Джураев Т.Д. Узбекистанцы участники партизанской войны. Тошкент. Узбекистан, 1975. –С.22.
23. Узбекская ССР в годы великой Отечественной войны (1941 – 1945 гг.). Т.1. Ташкент. Фан. 1981. –С.371.
24. Совет Ўзбекистони. 1972 й. 23 март.



Mahmudjon SUYAROV,
O'zMU talabasi
E-mail: suyarovmahmud2@gmail.com

Tashqi taqrizchi : B.G. Normurodova – Sam DU O'zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori, professor

A LOOK AT THE RULING ACTIVITY OF KHOREZMSHOH TAKASH

Annotation

In this article, Anushtegin Khorezmshah states that Aloviddin Takash, a skilful commander and politician, greatly strengthened the state, dealt severe blows to foreign enemies, greatly expanded the territory of the state, developed science in the country, and actively developed foreign economic relations. talk about. The activity of the ruler is revealed through the scientific literature and historical researches on the history of this period.

Key words: Khorezmshah, anushtegin, revolt, move, siege, fight, caliph, sultan

РЕВОЛЮЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ХОРЕЗМШОХ ТАКАША

Аннотация

В этой статье предводитель хорезмшахов Ануштегин утверждает, что Аловиддин Такаш, искусный полководец и политик, укрепил государство в самых могущественных странах. говорить о. Правящая деятельность раскрывается через научную литературу и исторические исследования на тему истории этого периода.

Ключевые слова: Хорезмшах, ануштегиний, восстание, поход, осада, битва, халиф, султан.

XORAZMSHOH TAKASHNING HUKMIRONLIK FAOLIYATIGA NAZAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada anushteginiy Xorazmshohlar davlatini boshqargan, mohir sarkarda va siyosiy arbob Oloviddin Takashning davlatni niroyatda kuchaytirganligi, tashqi dushmanlarga qaqshatqich zarbalar berganligi, davlat hududlarini niroyatda kengaytirganligi, mamlakatda ilm-fanni ravnaq toptirganligi, tashqi iqtisodiy aloqalarini jadal rivojlanirganligi, shuningdek, mamlakatda keng bunyodkorlik ishlarini amalga oshirganligi haqida so'z boradi. Mazkur davr tarixi haqida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va tarixiy dadqiqotlar orqali hukmdor faoliyatini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazmshoh, anushteginiyalar, isyon, yurish, qamal, jang, xalifa, sulton.

Kirish. O'rta asrlarning qudratli turkiy davlatlaridan biri bo'l mish saljuqiylar sultonligining yemirilishi anushteginiyalar sulolasi hukmronligidagi Xorazmshohlar davlati tashkil topishiga zamin yaratdi. Sultanat aynan ushbu sulola davrida qudratining cho'qqisiga erishdi. Davlatning saljuqiyalar noibligidan mustaqilligi XII asr boshlaridan qo'lga kiritila boshlandi hamda vaqt o'tgan sa'yin ushbu huquq mustahkamlana bordi. XII asr so'nggi choragida esa, davlat har jabhada taraqqiy etdi. Bu davrda hukmronlik qilgan Xorazmshoh Ollovuddin Takash o'zining zafarli yurushlari va odilona boshqaruvi bilan mamlakat rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorazmshohlar davlatini boshqargan oxirgi – anushteginiyalar sulolasi vakili Ollovuddin Takash tarixiy faoliyatini o'rganishda (XII asr) o'rta asr arab manbalari bo'lgan Ibn al-Asirning "al-Komil fit-tarix" hamda Olovuddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi jahonkusho" kabi asarlariiga tayanildi. Shuningdek, mazkur sulola hukmronlik qilgan davrga oid bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari amalga oshirilgan. Masalan, Z.Bunyodov (1998), O.B.Bo'riev (1999), N.T.Toshev (1999), M.Matniyozov (1999), A.Sotliqov (1999), I.Jabborov (1999), O.Masharipov (2007), S.Saburova (2008)lar ilmiy jihatdan ushbu sulola tarixi tadqiq etishgan. Bu kabi tadqiqotlar vositasida Xorazmshohlar davlati, xususan, Ollovuddin Takash davri tarixi haqida atroficha ma'lumot olish mumkin.

Tahlil va natijalar. Xorazmshoh El Arslon (1156-1172) vafoti oldidan to'ng'ich o'g'li Ollovuddin Takashni emas, kichik o'g'li Sultonshoh Mahmudni valiahd etib ta'yinladi. Takash o'gay ukasi Sultonshoh taxtni egallagandan so'ng hukmdorga sodiqlik qasamyodini qabul qilish uchun poytaxtga chaqirtirildi. Tabiiyki, u elchilariga Gurganjga bormasligini hamda ukasi hokimiyatini tan olmasligini

bildirdi. Bunga javoban Sultonshoh unga qarshi qo'shin jo'natdi [13].Shunday og'ir vaziyatda Takash diplomatik mahoratini ishga soldi. Sultonshohni taxtdan tushirish uchun qoraxitoylar malikasi Cheng Tian [3] bilan shartnomaga tuzdi. Sarkarda Fuma boshchiligidagi qoraxitoylar qo'shimi Takash kuchlariga kelib qo'shildi. Natijada, Sultonshoh Nishopur qochishga majbur bo'ldi. Biroq, u Xurosonda Takashga qarshi harakatlar boshladi. Takash va qoraxitoylar ittifoqi tezda buzildi hamda ular Sultonshohni qo'llay boshladи. Chunki, qoraxitoylar Xorazmni o'zlariga qaram hisoblashdi hamda xalqga jabr-zulmni kuchaytirishdi. Bunga javoban Takash tomonidan ular jazolandи. O'zaro munosabatlар keskinlashgan ushbu vaziyatda qoraxitoylar elchisi Takash tomonidan o'dirilishi oqibatida ikki tomon munosabati tamomila uzildi.

Bu orada Sultonshoh siyosiy jihatdan Nishopur hokimi Muayyad bilan bitim tuzib, unga Xorazmshohlar davlatining katta hududlarini va'da qildi. Ittifoqchilar va Xorazmshoh Takash qo'shinchilari o'ttasida 1174-yilda Gurganchdan 20 farsah uzoqligidagi Subvur shahrida jang bo'ldi. Muayyad qo'shinchilari yengildi, o'zi esa, qatl etildi. Sultonshoh esa, Dehistonga yo'l oldi. Dehiston egallangandan so'ng Sultonshoh yana Nishopurga, Muayyad o'g'li To'g'onshoh Abu Bakr huzuriga qaytishga majbur bo'ldi [8].

Biroq, Sultonshoh Nishopur yangi hokimidan yordam ololmay, g'uriylar davlati hukmdori G'iyosiddin Muhammad huzuriga ketdi. U ham Xorazmshohlar davlatining kuchsizlanishidan manfaatdor edi. G'iyosiddin Muhammad Xorazmshoh va qoraxitoylar o'ttasidagi nizolardan xabardor edi. Shu sababli, g'uriy hukmdor Sultonshohga qoraxitoylar bilan ham ittifoq tuzish lozimligini uqtirdi. Qoraxitoylar poytaxti Bolasug'unga bitim istagida borgan Sultonshoh malika Cheng Tianni Xorazm taxtiga bo'lgan qonuniy huquqi hamda xalqning u tarafda ekanligi bilan ishontirdi. Qo'shinchilari

yana sarkarda Fuma boshchiligidagi yo'lga otlandi. Xorazmshoh Takash esa, mudofaa choralarini kuchaytirdi. Gurganchga keladigan yo'lni Amudaryo vositasida suvgaga bostirib, to'sdi [6]. Xalq ham Takashni qo'llab-quvvatladi. Qattiq qarshilik natijada Fuma kichik qisminigina Sultonshohga qoldirib, ortga qaytishga majbur bo'ldi. Biroq, ushbu qo'shinden unumli foydalangan Sultonshoh 1180-yilda dastlab, Saraxsni, keyinchalik esa, Marvni ishg'ol qilib, Marvni o'z qarorgohiga aylantirdi. Tez orada Tus, Zama, Obivard, Niso shaharlari ham egallab, harakatlarini sharqda qoraxitoylar poytaxti Bolasug'ungacha davom ettirdi. Takashning esa, bu orada Mavarounnahrdagi nufuzi oshib bordi. Chunonchi, 1182-yili Buxoroda uning nomiga juma namozlarida xutba o'qilishi hukmdorning Mavarunnahrdagi siyosiy ta'sirini namoyon qildi.

1187-yilda Xorazmshoh Takash yana Nishapurga yurish qildi. 40 kunlik qamaldan so'ng shahar egallandi hamda davlat tassarrufiga qo'shib olindi. Ukasi bilan kurashlar barobarida Takash Xurosning Marv, Ray kabi markaziy shaharlari ham egalladi. Nihoyat, Takash va Sultonshoh o'ttasida 1188-yilda, ulamolar vositachiligidagi sulu tuzildi. Sultonshoh Takash hokimiyatini rasman tan oldi [12]. Oloviddin Takash 1189-yil 24-iyulda Tus shahrida rasman Xorazmshoh sifatida taxtga o'tirdi. Sultonshohga esa, Jom, Boxarz, Zaripul shaharlari taqdim etildi [3].

Biroq, bu bilan ziddiyatlar to'xtab qolmadidi. Sultonshoh yana g'uriylar bilan ittifoqqa urindi. Xattoki, u g'uriylarni o'ziga tobe hisoblab, sulton G'iyosiddindan Xiro, Bo'shanj, Bog'dis hududlarni talab qildi. Vaholanki, 1190-yilda Sultonshoh qo'shnirlari g'uriylar tomonidan tor-mor etildi. Endi, Sultonshohning butun umidi qoraxitoylar yordamidan edi. Biroq, Takash tomonidan ushbu davlatga o'tadigan barcha yo'llar to'sib qo'yildi.

Xorazmshoh Takashning 1192-yilda Ray hududigacha amalga oshirgan yurishlari chog'iда Sultonshoh Gurjanchni qamal qildi. Voqeadan xabar topgan Takash tezda ortga qaytdi. Sultonshoh chekinishga majbur bo'ldi. Sultonshohning ushbu harakati ularning hech qachon ittifoqqa erisha olmasligini amalda isbotladi. Shu sababli Takash 1193-yilda yana ukasiga qarshi yurish boshladi. Saraxs egallanib, Sultonshoh xazinasi talandi [10]. Nihoyat, 1193-yil 22-sentabrda Sultonshoh vafoti bilan o'zaro kurash ham tugadi. Toliqon-Marvirud-Hirot yo'nalishidagi keng hududlar Xorazm davlati tasarrufiga qo'shildi [13].

Xorazmshoh Takash jangovor qipchoq qabilasi vakillari hisobidan qo'shinni boyitdi. Aloqalarni mustahkamlash uchun ular bilan qarindosh tutindi [1]. Qipchoqlar yurishlarda faol ishtirok etib, yirik yer-mulk egalari qatlamini shakllantirdilar. Davlat qo'shini soni 150000 kishidan oshib ketdi. Takash g'ayridin qoraxitoylarga zarba berishni muqaddas burch hisobladi. Qipchoqlar yo'boshchisi Ali Qora bu borada u bilan birdamligini bildirdi.

Saljuqiylar davlati XII asrning 2-yarmida nihoyatda zaiflashdi. Chunonchi, Iroq va Eron hududlarida saljuqiylar davlatining hokimiyati deyarli yo'qqa chiqdi. Ozarbayjon va Iroqda otbeklar sulolasidagi hukmronligi boshlandi. Biroq, bu davlatning tezda parchalanishi zindondagi saljuqiylar qoldirib, To'g'rul III ning hokimiyati tiklanishi olib keldi. U 1192-yilda zindondan qutilib, tarafdarlarini to'plab, dastlab, Oazvinni so'ngra Hamadonni egalladi hamda o'z davlatini qayta tilkadi. Xorazmshoh Takashning qudratini to'g'ri anglagan holda To'g'rul III o'zini unga tobe sifatida ko'sratdi. Hatto, Xorazmshoh nomidan tangalar zarb etish, xutba o'qitish hamda yillik bojni to'lashga va'da berdi. Shuningdek, Xorazmshoh o'g'li Yunusxonqa To'g'rul III qizini tur mushhga berdi. Ray shahrini ham Xorazmshohga tuhfa etdi. Biroq, saljuqiylar sulton tezda o'zaro kelishuvni buzdi hamda Rayni egalladi. U Xorazmshohning Sultonshoh bilan o'zaro kurashda bandligidan foydalanoqchi bo'ldi. Shu sababli Xorazmshoh To'g'rul III ga qarshi harbiy harakatlar boshladi. Bag'dod

xalifasi Nosir (1180-1225) Xorazmshohga noma yozib, uni birga saljuqiylarga zarba berishga chaqirdi. Chunki, saljuqiylar xalifalikning bir qancha hududlarini egallab olgan edi. U Al-Qassaba rahbarligidagi qo'shinni Xorazmshoh ixtiyoriga jo'natdi. Nihoyat, uzoq kurashdan so'ng, 1194-yil 4-martda, Ray yaqinidagi jangda Xorazmshoh g'alaba qozondi, To'g'rul III jangda o'ldirildi. 1195-yilda esa, Kerman egallandi. Shu tariqa, Eron va Iroq hududlaridagi saljuqiylar davlati tugatildi. Xorazmshoh sulton unvonidagi hukmdorni mag'lub etganidan so'ng o'z nomiga "sulton" masnadini ham qo'shishni buyurdi. Ba'zi hududlar o'z ixtiyori bilan Xorazmshoh davlati tarkibiga qo'shildi. Jumladan, 1195-yilda Eronning Kubnat qal'asi muteligini bildirdi. Hudud aholisi o'zaro kurashlardan charchaganliklari sababli, tinch-totuv yashash umidida Xorazm davlatiga tobe bo'lishdi.

Ko'p o'tmay Xorazmshoh Takash va xalifa o'ttasida nizo paydo bo'ldi. Bunga xalifaning saljuqiylar bilan kurashdan so'ng hech qanday hududiy manfaat ko'rmaganligi sabab bo'ldi. Ray yaqinidagi g'alabidan so'ng Xorazmshoh Iroqning bir qancha qal'alarini zabt etdi hamda yaqinlariga Iroqni taqsimlab, ortga qaytdi. Bu orada xalifa Nosir uning ortidan 10000 kishilik qo'shinni Al-Qasabba rahbarligida yubordi. Unga Xorazmshohni aldov yo'li bilan o'ldirish topshirildi. Biroq, xalifa maqsadini oshkor bo'lgach, Al-Qasabba qo'shinlarini ham tor-mor etildi. Bu dushmanlik holati keyingi hukmdorlar davrida ham saqlanib qoldi.

Xorazm qo'shidian arang qochib qutilgan Al-Qasabba otbeklar sulolasidan bo'lgan Qutlug' Inonch bilan birlashib, Iroqni ozod qildi. Buning natijasida Takash 1196-yilda yana g'arbiy sarhadlarga yurish boshlab, Hamadonni egalladi. Ray va Isfahan ham qayta bo'ysundirildi. Xalifa rasman Xorazmshoh hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldi. Iroq faqatgina Takash vafotidan so'ng amalga oshirilgan xalq qo'zg'onloni natijasida mustaqillikka erishdi.

Hukmronligining so'nggi yillarda Xorazmshoh Ismoiliylar bilan muvaffaqiyatlari urushlar olib bordi. Bu diniy guruh vakillari Yaqin va O'rta Sharqning turli davlatlari tarafdarlari hamda hududlariga ega edi [8]. 1199-yili ularning yirik shahri Arslon Gushay egallandi. Keyingi harakat Ismoiliylar markaziy shahri – Alamutga qaratildi. Biroq, nomalum sabablarga ko'ra Xorazmshoh qamalni uzoq davom ettirmay, qaytib ketdi. Ismoiliylar joususi Takash vaziri Nizom ul-mulk Mas'ud ibn Alini o'ldirdi. Ishonchli vaziri o'limi uchun Xorazmshoh ularni jazolashga o'g'li Qutbiddin Muhammadni katta qo'shin bilan yubordi. 4 oylik qamaldan so'ng Ismoiliylarning Tushriz qal'asini egallandi hamda ular katta miqdordagi tovon puli to'lashga majbur bo'ldilar.

Bu orada Xorazmshoh va xalifa o'ttasidagi munosabatlarni yana buzildi. Xalifa eski da'volar bilan adovatga kirishdi. Shunday vaziyatda Xorazmshoh xalifalikga qarshi yurush boshlashga buyruq berdi [11]. Biroq, tayyorgarlik jarayonlarida Xorazmshoh og'ir xastalikka chalindi. Xastalikdan ahvoli og'irlashganiga qaramasdan, hukmdor davolanish o'miga yurishga otlandi. Biroq, Arab qudug'i (Xurosning Nishopur shahri yaqinidagi Shahriston hududi)ga yetib kelgach, xastalik qaytalandi hamda Xorazmshoh Takash aynan shu hududda vafot etdi. Bu voqe 1200-yil 23-iyuniga to'g'ri keldi. Vasiyatiga ko'ra, hukmdor jasadi poytaxt – Urganchga keltirildi va o'zi qurdirgan madrasa yaqinidagi maxsus maqbaraga dafn etildi.

Xorazmshoh Takash davrida davlat iqtisodi ham taraqqiy etdi. Ham ichki ham tashqi savdo rivojlandi. Fikrimiz isboti o'laroq, taniqli arab geografi Yoqut Hamaviy Xorazmga qilgan safarida iqtisodiy hayotni tahsil qildi hamda unga yuksak baho berdi. U esdaliklarida Takash va Qutbiddin Muhammad davrida Xorazmza 50 dan ortiq hunarmandchilik sohasi rivoj topganini qayd etgan. U Xorazmda tayyorlangan mahsulotlar hatto musulmonlarning Yevropadagi Andalusiya [9, – Б. 488-489] davlatiga ham sotilganligi, xaridorgirligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, arxeologik qazishmalar

natijasida Shohsanam shahri xarobasidagi masjiddan Takash nomi bilan zarb qilingan tangalar topilganligi iqtisodiy hayotga hukmdor ta'sirining isbotidir.

Xorazmshoh Takash davrida mamlakat turli hududlarida buniyodkorlik ishlari avj oldi. Chunonchi, Marv va Urganchda masjidlar, madrasalar hamda ilmiy qo'lyozmalar saqlanadigan kutubxonalar qad ko'tardi. Shohsanam, Smo'xshir, Qovurqal'a, Deboqqal'a, Qal'aliqu'r kabi shaharlar, istehkomlar mudofaa tizimi mustahkamlandi. Chamyonbop kanalining suv bilan ta'minlanishi vohaning dehqonchilik ishlari rivojini ta'minladi. Chunki, Chamyonbop vohasi deyarli cho'lga aylanib qolgan edi [5].

Xorazmshoh Takash nafaqat siyosiy arbob, balki ilm-fan homysi ham edi. Ma'rifatlari hukmdor faoliyatiga bag'ishlangan qator tarixiy asarlar yaratildi. Shunday asarlardan biri Takashning yaqin maslahatchisi Umar ar-Roziy tomonidan yozilgan "Javoni al-ulum" (Ilmlar to'plami) asaridir [7]. Xorazmshoh madaniyat homysi sifatida o'zi ham san'atga oshno bo'ldi. Manbalarda yozilishicha, hukmdor

musiqa asboblaridan ayniqsa, ud chalishni maromiga yetkazib ijro etgan[2].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, Xorazmshoh Takash odil, xalqparvar hukmdor, xalqaro maydonda mohir diplomat sifatida ham nom chiqardi. U ukasi bilan kechgan uzoq yillik urushlar davrida tashqi siyosat masalasiga alohiда e'tibor berdi. Qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni saqlashga urindi. Xorazmshoh va xorijiy hukmdorlar o'rtasida olib borilgan yozishmalarni o'zida jamlagan "Al-tavassaul-ila-tarassul" to'plami fikrimiz isbotidir. Xorazmshoh ukasi bilan bir qatorda tashqi siyosiy dushmanlari bilan ham timilsiz kurashlar olib borishga majbur bo'ldi. Biroq, hukmdor o'zining mohir diplomatik va harbiy salohiyati tufayli ushbu siyosiy jarayonlarni o'z davlati manfaatlari foydasiga hal qila oldi. Shu omillar tufayli aynan Xorazmshoh Takash ko'plab muarrixlar tomonidan Anushteginiy Xorazmshohlar imperiyasining ramziy asoschisi sifatida qayd etildi.

ADABIYOTLAR

1. Абулғозий Баходирхон. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1991 – 31 б.
2. Азамат З. Ўзбек Давлатчилиги тарихи (энг кадимги даврдан Россия босқинига кадар). – Тошкент: Шарқ, 2001 – 146 б.
3. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонкушо (Жаҳон фотихи тарихи). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015 – 285-291 б.
4. Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати (қадим тарих саҳифалари). – Тошкент: Шарқ, 1999 – 100 б.
5. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих («полный свод истории») избранные отрывки. – Ташкент – Цюрих, 2005 – 277 б.
6. Матниёзов М., Сотликов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. – Ўрганч: Хоразм нашириёти, 1999 – 123 б.
7. Машарипов О. Хоразмнома (иккинчи китоб, Хоразм, юксалиш ва инқироз) – Ўрганч: «Хоразм» нашириёти, 2007 – 167-186 б.
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси “А” харфи. – Т: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси давлат илмий нашириёти, 488-489 б.
9. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. Ўзбекистон Миллий Университети Ўзбекистон тарихи кафедраси, – Тошкент.
10. 2012 – 193 б.
11. www.e-tarix.uz
12. www.xorazmiy.uz
13. www.ziyouz.uz



Раҳимжон ҲАСАНОВ,

Тошкент "MEI" миллий тадқиқот университети Федерал давлат бюджети

олий таълим муассасаси филиали ўқитувчisi

E-mail:r.hasanov@mail.ru

Тарих фанлари доктори, профессор Ҳамидов Ҳ. тақризи асосида

HISTORY OF THE LYRICAL SONG

Abstract

The article discusses the history of Uzbek lyrical singing, the complex life path of the people's memory of Uzbekistan, creative activity, the memory of people's grief, joy, achievements, love, songs glorifying the motherland, teachers and poets. The article also discusses the role of art in the promotion of nationality, especially in promoting the idea of national ascent, the example of the Ulugkhans reflects the essence of the concepts of national and national ideology.

Key words: Art, lyrical singing, teacher-student, traditions and customs, the idea of national upsurge, propaganda of the national idea, action strategy, spirituality and education, education of youth.

ИСТОРИЯ ЛИРИЧЕСКОЙ ПЕСНИ

Аннотация

В статье рассматривается история узбекского лирического пения, сложный жизненный путь народной памяти Узбекистана, творческая деятельность, память о народном горе, радости, достижениях, любви, песнях, прославляющих родину, учителей и поэтов. Также в статье рассматривается роль искусства в пропаганде национальности, особенно в продвижении идеи национального восхождения, на примере улугханов отражается суть понятий национальной и национальной идеологии.

Ключевые слова: Искусство, лирическое пение, учитель-ученик, традиции и обычаи, идея национального подъема, пропаганда национальной идеи, стратегия действий, духовность и просвещение, воспитание молодежи.

ЛИРИК ҚЎШИҚЧИЛИК ТАРИХИ

Аннотация

Маколада ўзбек лирик қўшиқчилиги тарихи, Ўзбекистон халқ ҳофизларининг мураккаб ҳаёт йўли, ижодий фаолияти ҳамда ҳофизларнинг халқ дардини, қувончини, ютуқларини, мухаббатини, Ватанини мадҳ этган қўшиқлари, устоз ва шогирдлари ҳақида фикр юритилади. Шунингдек, маколада миллийликни тарғиб килишда санъатнинг роли, хусусан миллий юксалиш ғоясини тарғиб килишда улуғ санъаткорлар мисолида миллийлик ва миллий мафкура тушунчаларининг моҳияти акс эттирилган.

Калит сўзлар: санъат, лирик қўшиқчилик, устоз-шогирд, анъана ва урф одат, миллий юксалиш ғояси, миллий ғоя тарғиботи, харакатлар стратегияси, маънавият ва маърифат, ёшлиар тарбияси.

Кириш. Миллий маданиятнинг асосини санъат, яни қўшиқчилик, мусика ташкил қиласи. Негаки, қўшиқчилик, мусика фақат аҳолининг маълум бир табакасига мансуб соҳа эмас, балки ундан барча баробар баҳраманд бўлади. Умрида қўшиқ, мусика эшитмайдиган одам учрамайди. Қўшиқчилик миллий анъаналар туфайли аждодлардан авлодларга ўтиб келди. Бахшилар кўйлаган қадимий достонларнинг ҳам, мумтоз мусика асарларининг ҳам матни, нотаси йўқ эди. Бирор устоздан шогирдга тўла тўқис мерос бўлиб қолгани учун ҳам унугилмади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги "Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чоратадбирлари тўғрисида"ги Фармони мухим аҳамиятга эга бўлди [1]. Ушбу қарорлар миллий қўшиқчилик санъатини хам ривожлантириша мухим аҳамият касб этади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ўзбек халқининг маданияти ва санъати жаҳон бўйлаб ўзининг қадимий тарихи, анъаналари, серкірра ва сержилолиги билан ажralib туради. Халқимиз миллий маданий меросига катта ҳисса қўшган, "Буюк хизматлари учун" ордени сохиби, Ўзбекистон халқ ҳофизи Мулла Тўйчи Тошмуҳаммадов ўзининг белазир овози, ажойиб иктидори, ўткир ижрочилик маҳорати билан танилган санъаткор, мусикий меросимиз билимдони, қўшиқчилик санъатининг улкан вакилларидан бири ҳисобланади.

Тўйчи ҳофиз 1900 йилда Эрон, Туркия, Италия, Хиндистон ва Миср каби мамлакатларда ўзбек қўшиқчилик санъатининг ажойиб намуналарини катта маҳорат билан ижро этиб, чет элларда ўзбек маданияти ва санъатни илк бор тарғиб қилган етук санъаткор ҳисобланади. Тўйчи ҳофиз айтган "Баёт", "Ушшок", "Сегоҳ", "Гиря", "Илғор", "Сувора", "Чоргоҳ", "Кўчабоги", "Шаҳнози Гулёр", "Таронаи Дугоҳ" ва "Синахирож" каби мумтоз ашулалар ўзбек мусика ва қўшиқчилик санъати тарихида алоҳида ўрин тутди. Устоз санъаткорнинг ижро йўлларини ўрганиб, санъатда ўз ўрнини топган муносиб шогирдлари - Шораҳим Шоумаров, Юнус Ражабий, Риски Ражабий, Карим Зокиров, Бобораҳим Мирзаев каби машҳур хонандалар унинг ижрочилик анъаналарини давом эттирилар [2].

Тўхтасин Жалилов ўзбек миллий мусиқасини жаҳонга тарғиб килишда катта ҳисса қўшди. Хусусан, 1936 йилда Лондонда ўтказилган жаҳон ракс фестивалида Мухиддин Қориёкубов, Тўхтасин Жалилов, Тамарахним, Уста Олим Комилловлар катнашиб, халқаро эътирофга сазовор бўлиши [3].

Тадқиқот методологияси. Миллий ўзлигимизни англаш, маданиятимизни хар томонлама ривожлантириш, халқимиз, аввало, ёш авлодимизни юқсан инсоний туйгулар руҳида тарбиялаш, унинг эстетик диди ва тафаккурини шакллантиришда миллий қўшиқчилик санъатининг кенг имкониятларидан етарлича фойда-

ланилмаяпти. Мазкур йўналишда чуқур илмий-назарий тадқиқотлар, ўқув-услубий адабиётлар яратиш, мақом санъатини радио-төлевидение, оммавий ахборот восита-лари, Интернет тармоғи оркали мамлакатимизда ва чет элларда тарғиб этиши, мақом устозлари, соҳа олимлари ва мутахассислари, иқтидорлар ва истиқболли ёш ижрочилар фаолиятини моддий ва маънавий жиҳатдан кўллаб-кувватлашаш ишлари эътибордан четда қолиб келмоқда.

Ўзбек санъатининг ёрқин юлдузлари Мухиддин Кориёкубов, Мулла Тўйчи Тошмуҳаммедов, Тамарахоним, Гавҳархоним, Уста Олим Комилов, Ганижон Тошматов, Мукаррама Турғунбоева ва бошқалар ўзбек санъатини ривожлантиришда ўз хиссасини кўшиди. 1939 йили Катта Фарғона канали курилиши вактида ҳам кўп таникли санъаткорлар катори Ганижон Тошматов раҳбарлигидаги ҳалқ чолғу ансамбли ҳам ҳашарчиларга маданий хизмат кўрсатди. Ганижон Тошматовнинг серкирра ижодининг каттагина даври Ўзбекистон радиоси бадиий жамоалари билан боғлиқ. Унинг шу даврларда яратилган кўшикларини Ўзбекистон ҳалқ ҳофизлари Жўрахон Султонов, Маъмуржон Узоқов, Ортиқхўжа Имомхўжаев, Акбар Ҳайдаров, Бобохон, Акмалхон Сўфихоновлар, Карим Мўминов, Берта Давидова каби санъаткорлар ижро этиб ҳалқимизнинг олқишиларига сазовор бўлишган.

1949-1953 йилларда, оркестрга раҳбар бўлиб ишлаган кезларда, «Ушшоқ», «Сегоҳ», «Насри Сегоҳ», «Дугоҳ», «Сурнай Бузруги», «Чапандози Баёт», «Чапандози баёт», «Насруллои», «Фарғона бузруги» каби ўнлаб мақом йўллари, «Муножот», «Тановор», «Фарғона тонг отгунча», «Яланг даврон», «Нисор», «Муножот» каби анъянавий ҳалқ кўшиклари куйларини, ўзи басталаган «Кезарман», «Гулжамол» ва бошқа мураккаб асарларни маҳорат билан ижро килган.

Ганижон Тошматовнинг ўзи яратган «Истадим», «Эй, бегим», «Қаро зулфинг», «Хай-хай санам», «Ўлдуройин дермисан», «Менинг меҳрибоним», «Бўл», «Дедимки» ашулалари машҳур ҳофиз ва кўшиқчиларимиз Толибжон Бадинов, Орифхон Ҳатамов, Фароғат Раҳматова, Эътибор Жалилова, Юнускори Юсуповлар томонидан куйланиб, эл-юрт назарига тушган. 1979 йилда Ганижон Тошматов ташкил қилган «Дуторчи қизлар» дастаси республикамизда таникли ансамблардан бирига айланди [4].

Таҳлил ва натижалар. Кўшиқ, мусиқа миллий маданиятимизнинг негизларидан бири ҳисобланади. Негаки, кўшиқчилик, мусиқа фақат аҳолининг маълум бир табақасига мансуб соҳа эмас, балки ундан барча баробар баҳраманд бўлади. Умрида кўшиқ эшитмайдиган, мусиқа эшитмайдиган одам учрамайди. Кўшиқ, мусиқа ҳар бир хонадонга кириб боради. Фахриддин Умаровнинг зебо кўшикларини тингламаган авлод вакили бўлмаса керак. Юнус Ражабий мақомни жамлаган фидокор зот бўлса, Ботир Зокиров ўзбек эстрадасининг асосчиси, Фахриддин Умаров эса ўзбек лирик кўшиқчиларининг йўлбошчиси хисобланади.

Фахриддин Умаров ўзбек кўшиқчилигига олиб кирган янги лирик жанр ажойиб йўналиш эдики, бунда турли қаттиқ бақир-чақирлар ўрнини майнинлик, нозиклик, нағислик эгаллади. Бу услубда ижро этилган кўшиклар ёш-қарига бирдек манзур бўлди. У 1954 йилларда санъатда туб бурилиши ясагач, кўпчилик ёшлар асосан шу йўналишда куйлай бошлади. Бунга К.Рахимов, Х.Лутфуллаев, Ш.Жўраев, Ж.Муродов, Ж.Набиев, Ф.Ёкубов, Н.Ҳамрақулов, Б.Ҳамдамов, О.Отажонов, О.Худойшукуров, Х.Ҳамидовларни мисол келтириши мумкин.

Фахриддин Умаров ўз шогирдларига “Хонанда шеърнинг маъносини билмасдан туриб, куйга солишига ва куйлашга ҳаққи йўқ. Санъаткор куйлаётган кўшигининг

маъносини билмаса, унинг ичиди ёнмаса, қандай қилиб тингловчининг юрагини ёқа олади?” дерди. Ҳофизнинг садоқатли шогирди, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, тарих фанлари доктори, профессор Ҳожиакбар Ҳамидов “Фахриддин ака буюк тарихий шахсларнинг ҳаётини ҳам чуқур ўрганганди. Нафакат адабиёт, балки тарихни ҳам чуқур биларди. Соҳибкорон Амир Темур, Заҳиридин Бобур ҳакидаги айrim маълумотларни мен ўзим тарихчи бўла туриб, устозимдан билиб олганман”, дейди [5]. Ҳофизни ҳамкаслари ва шогирдлари тирик энциклопедия, файласуф ва донишманд санъаткор, деб аташарди.

Фахриддин Умаровнинг номи ўзбек миллий мусиқа санъати тарихида муносиб ўрин топган буюк санъаткор. У яратган лирик кўшиклар, тенги йўқ ижро маҳорати ва бетакорлиги, басталанган кўшиклар жозибалиги, у яратган “лирика ижрочилик мактаби” ютуклари ҳозирги кунда замонавий мусиқа таълимоти ривожидаги босқичларини белгилашда алоҳида аҳамият касб этиши шубҳасиздир. У ўзининг оҳанѓдор, дилтортар куй-кўшиклари билан суюқ Ватанимизни, меҳрибон ота-оналарни, севикли ёрни, дўстлигимизни, умуман “ҳазрати Инсон”ни мадҳ этиб, куйлаган кўшиклари муҳлислар қалбидан чуқур жой олган. Фахриддин Умаров ишқ-муҳаббат ва садоқат, вафою ҳаё, орзу ва умид, меҳр ва жасорат, ёшлиқ ва гўзлаликни тараним этувчи юзлаб кўшикларни яратиб, уларни ажойиб тарзда ижро этиб, ўзига хос миллий лирика мактабини яратган буюк санъаткордир.

Фахриддин Умаров нафакат лирик кўшиқчиллик борасида, балки кундалик ҳаётда ҳам, ҳалқ билан мулоқатда, саҳнада ўзини тутишда, юриш-туришда, соз чалишда ҳам янгилик яратди ва шогирдларига ҳар тарафлама ўrnak бўлғанлар. Устоз санъаткор 60 йил давомида 700 дан ортиқ кўшикларга куй басталаган бўлса, уларнинг барчаси санъатнинг конун-коидаларига мукаммал жавоб берадиган, инсонга завқ-шавқ, ором берадиган кўшиклардир. Буларнинг аксарияти ҳофизнинг ўзи ёзган шеърлар эди [6].

Фахриддин Умаров адабиёт, тарих, фалсафа ва шу билан бирга ислом динидан боҳабар, Аллоҳнинг назари тушган донишманд инсон эди. Фахриддин Умаров маҳрум этилган “Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист” унвони чорак аср ўтгач, 1990 йил Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг маҳсус фармони билан қайтадан тикланди. Ҳофизнинг ўзбек хонандачилиги олдида қилган хизматлари юксак баҳоланиб, у 2002 йилда “Ўзбекистон ҳалқ ҳофизи” унвони билан тақдирланди.

Фахриддин Умаров ҳалқнинг дардини, қувончини, ютукларини, муҳаббатини, Ватанини мадҳ этган ҳофиз эдилар. Масалан мана бу кўшикларни олайлик: “Азиз Ватаним”, “Эй, муҳаббат”, “Ўзбегим”, “Ҳилол эмасму?”, “Умр ўтмоқдадур”, “Онам дерман”... Фахриддин Умаров нафакат лирик кўшиқчиллик борасида, балки кундалик ҳаётда ҳам, ҳалқ билан мулоқатда, саҳнада ўзини тутишда, юриш-туришда, соз чалишда ҳам янгилик яратди ва шогирдлари ҳар тарафлама ўrnak бўлғанлар.

Устоз-шогирд Фахриддин Умаров ва Ҳожиакбар Ҳамидов санъат соҳасида маҳсус маълумот олишган эмас, шунингдек, асосан ўзлари яратган кўшикларни куйладилар. Муаллифлик кўшиғи кимгадир ёки ёқмаслигидан катый назар, тингловчиларга манзур бўлиб, ҳаётда йўналиш сифатида мавжуд экан илм (санъатшунослик) ҳам эътироф этиши, уни шарҳлаши мукаррардир. Негаки бугун ўзбек санъатини Фахриддин Умаровсиз ё Ҳожиакбар Ҳамидовсиз тасаввур килиш мумкин эмас.

Ўзбекистон ҳалқ ҳофизи Фахриддин Умаровнинг шогирди Ҳожиакбар Ҳамидов устозига содик бўлган,

устозининг муборак дуосини олган шогирдларданнадирлар. Зоро, устоз-маънавий ота хисобланади. Ҳожиакбар Ҳамидов 1991 йилда "Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими" унвони билан тақдирланган. "Ўзбек анъанавий қўшиқчилиги маданияти тарихи" мавзусида докторлик диссертациясини ёқлаган. Тошкент Давлат иқтисадиёт университети профессори, тарих фанлари доктори, "Тўрён" фанлар академияси академиги.

XX аср 60-йиллари охириларида Ўзбекистон қўшиқчилик санъатига ўзига хос тақрорланмас жарагандор овоз билан кириб келган ёш Ҳожиакбар ака Ўзбекистон халқ ҳофизи Фахриддин Умаровнинг севимли шогирди сифатида халқимиз ўртасида лирик хонанда сифатида танилди ва тез орада юртимизда жуда машхур бўлиб кетди. Ҳ.Ҳамидов 1969 йилдан бошлаб Ўзбекистон телевидениеси ва радиосининг турли дастурларида ўз қўшиклари билан қатнашиб келмоқда. У 1972 йилдан хозиргача Ўзбекистон давлат филармонияси (Ўзбекконцерт) концерtlарида яккахон хонанда сифатида фаолият кўрсатмоқда. Ҳ.Ҳамидовнинг санъаткорлик маҳорати ва ўзига хос қўшиқчилик ижроси алоҳида тадқиқот мавзуси хисобланади.

Ҳ.Ҳамидов институтда ишлаб юрган ва аспирантурада таҳсил олган йилларида Ўзбекистонда мусиқа маданияти тарихи бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб борди. Айнан ўзи жуда яхши билган икки соҳа: ўзбек халқи қўшиқчилик санъати ҳамда Ўзбекистон тарихи фанини ўйғуналаштирган ҳолатда маданият тарихига оид ўзига хос ва бетакор тадқиқотлар яратди.

Ҳожиакбар Ҳамидов 1985 йил 26 декабрда Тошкент давлат университетида академик Эркин Юсупов илмий раҳбарлигига "Ўзбекистонда бадиий ҳаваскорлик санъатининг ривожи (1971 - 1980 й.)" мавзусида номзодлик, 1997 йил 14 июляда Ўзбекистон ФА Тарих институтида профессорлар Назар Ҳакимов ва Тўхтасин Фоғирбеков илмий маслаҳатчилигига "Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданияти тарихи (Энг қадимги даврлардан хозиргacha)" мавзусида докторлик диссертацияларини муваффакиятли химоя килди.

Ҳ.Ҳамидов Ўзбекистон тарихи ва маданиятига оид 100 дан ортиқ илмий ва оммабоп мақолалар, 3 та монография, 20 дан ортиқ тарихий рисолалар, турли дарслеклар ва ўкув кўлланмалари муаллифи саналади. Унинг "Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданияти тарихи" (1996), "Мени ёд эт" (Фахриддин Умаров фаолиятига бағишлаб яратилган асар; 2000), "XVI - XIXаслар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар" (2009) монографиялари, "Ўзбекистон тарихи (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача)" [Ҳ.Бобобеков, Қ.Ражабов, С.Холбоев, И.Шоймардонов билан ҳаммуаллифларда, 3-

нашр; 2018] кисқача маълумотномаси, "О'zbekiston tarixi" (Кўлдош Эргашев билан ҳамкорликда; 2015) номли олий ўкув юртлари, лицей ва коллеж талабалари учун салмоқдор ўкув кўлланмаси ва бошқа китоблари чоп этилиб, аллақачон ўкувчилар ва олимнинг муҳлислари ўртасида кўлма-кўл бўлиб кетган [7].

Тарих фанлари доктори, профессор Ҳожиакбар Ҳамидов йирик тарихчи олим ва тажрибали мураббий сифатида шонли ҳаёт йўлини босиб ўтмоқда. Унинг қаламига мансуб асарларида юртимизнинг маданият ва санъат тарихига алоҳида ургу берилса ҳам, бироқ Турон ва Туркистон тарихининг кўп жиҳатлари, хусусан, мустақил Ўзбекистон Республикаси тарихи масалалари кенг ёритилган.

«Донишманд ҳофиз» деб номланган китоб ҳофиз ва Ҳамиджон Тоҳиржонов ҳаммуаллифлигига ёзилган бўлиб, бу асар Фахриддин Умаров ҳақида аввалорқ ёзилган «Мени ёд эт» китобининг давомидир. Асарни ўқиб, унда биринч китобда учрамайдиган кўплаб қизикарил воқеалар берилганлиги, Фахриддин Умаров ҳақида матбуотда эълон килинган мақолалар, ҳофизнинг ўзи ёзган шеърлари, унинг шогирдлари, яқинлари ва муҳлисларининг устоз ҳақидаги қизикарил хотиралари ўрин олганлигига гувоҳ бўлиши мумкин [8].

Зоро, Фахриддин Умаровни нафақат ўзбеклар балки у киши тоҷик, қирғиз, қозоқ, уйғур, озарбайжонларнинг ҳам севимли қўшиқчиси десак, муболага бўлмайди. Ҳожиакбар Ҳамидовнинг «Донишманд ҳофиз» китоби, марҳум ҳофизимизнинг ўтмишда бошидан нималар ўтгани ҳақида ёзилган бўлиб муаллиф китобнинг Фахриддин Умаров ижодиётини ўрганишда ишонарли манба эканлиги, энг муҳими у ҳофиз ҳаёти ва ижоди ҳақида факат ҳақиқатни ёзилганлигини алоҳида қайд этиб ўтади.

Хулоса ва таклифлар. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирмонович Мирзиёев 2017 йил 14 август куни "Маданият ва санъат ташкилотлари, ижодий уюшмалар ва оммавий ахборот воситалари фаолиятини янада ривожлантириш, соҳа ходимлари меҳнатини рағбатлантириш бўйича қўшимча шароитлар яратишга доир чора-тадбирлар тўғрисида"ги [9] ҳамда 2017 йил 17 ноябрда "Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорларни имзолади [10]. Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги "Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ти ПФ-6000-сон Фармони муҳим аҳамиятга эга бўлди [1]. Ушбу қарорлар миллий қўшиқчилик санъатини ҳам ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги "Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ти ПФ-6000-сон Фармони. "Халқ сўзи", 2020 йил 27 май.
2. <https://esclips.com>
3. Бобоҷонов Р. Ўзбекистон Халқ артисти Тўхтасин Жалилов - 125 ёшда. // «Халқ сўзи», 2021 йил 28 май.
4. Ашурев М. Серқирра санъаткор Ғанижон Тошматов ҳаёти ва ижодини ўрганиш. <https://znanio.ru>.
5. Ҳамидов Ҳ. Фахриддин Умаровнинг ҳаёт фалсафаси. "Даракчи" газетаси, 2007 йил 20 сентябрь, № 38(445). -Б. 27.
6. Лутфуллаев Ҳ. Устоз. /Мени ёд эт. Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. -Б. 81.
7. <https://uzbektvhd.esclips.com>
8. <https://interkomitet.uz>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 август "Маданият ва санъат ташкилотлари, ижодий уюшмалар ва оммавий ахборот воситалари фаолиятини янада ривожлантириш, соҳа ходимлари меҳнатини рағбатлантириш бўйича қўшимча шароитлар яратишга доир чора-тадбирлар тўғрисида"ти қарори. "Халқ сўзи", 2017 йил 15 август.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги "Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ти қарори. "Халқ сўзи", 2017 йил 18 ноябрь.



Азамат ШАИМКУЛОВ,
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси
Гулистон ҳудудий филиали директори
E-mail: azamat_shoimkulov@mail.ru

ЎзМУ профессори, т.ф.д А.Ерметов тақризи асосида

FROM THE HISTORY OF THE INFORMATION POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT

Abstract

This article analyzes the complex and contradictory information policy of the Soviet government during the formation of the former USSR. The evolution of the information policy of the Soviet government is analyzed by the example of the mass media, which are the most important object of the state information policy. During this period, the formation of a totalitarian regime of state censorship, the establishment of an ideological monopoly in the information space, the formation of the "party and Soviet press", which actively participated in the establishment of authoritarian principles of governance.

Keywords: information policy, mass media, press, Decree "On the Press", censorship, State Publishing House, Main Directorate of Literature and Publishing Houses, workers and rural correspondents.

ИЗ ИСТОРИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется сложная и противоречивая информационная политика советского правительства в период становления бывшего СССР. Эволюция информационной политики советского правительства анализируется на примере средств массовой информации, являющихся важнейшим объектом государственной информационной политики. В этот период происходит формирование тоталитарного режима государственной цензуры, установление идеологической монополии в информационном пространстве, формирование «партийной и советской печати», активно участвовавшей в утверждении авторитарных принципов управления.

Ключевые слова: информационная политика, средства массовой информации, печать, Декрет «О печати», цензура, Госиздат, Главное управление литературы и издательства, рабочие и сельские корреспонденты.

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ АҲБОРОТ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН

Аннотация

Ушбу мақолада собиқ СССРнинг шаклланиш даврида совет ҳукуматининг аҳборот соҳасида юритган мураккаб ва зиддиятли сиёсати таҳлил қилинган. Давлат аҳборот сиёсатининг энг муҳим объекти бўлган оммавий аҳборот воситалари мисолида совет ҳокимияти аҳборот сиёсатининг эволюцияси таҳлил қилинган. Ушбу даврда тоталитар давлат цензура режимининг шаклланиши, аҳборот маконида мафкуравий монополиянинг ўрнатилиши, бошқарувнинг авторитар тамоилларини ўрнатишда фаол иштирок этган "партия ва совет матбуоти"нинг шаклланиш жараёни очиб берилган.

Калил сўзлар: аҳборот сиёсати, оммавий аҳборот воситалари, матбуот, "Матбуот тўғрисидаги" декрет, цензура, Давлат нашриёти, Адабиёт ва нашриёт ишлари бўйича Бош бошқарма, ишчи ва қишлоқ корреспондентлари.

Кириш. Жаҳон миқёсида содир бўлаётган глобал ўзгаришлар даврида аҳборот-коммуникацион технологиялар замонавий дунё тараққиёти динамикасини белгилаб бераётган асосий омилга айлануб бормоқда. Мазкур ҳолат фуқароларнинг сўз эркинлиги ва аҳборотдан фойдаланишга бўлган конституциявий ҳукуқларини таъминлашга қаратилган давлат аҳборот сиёсати тарихини чукур ўрганишни тақазо этади.

Аҳборот сиёсатига сиёсий таъсир кўрсатиш ва сиёсий мақсадларга эришиш воситаси сифатида қараш мумкин: аҳборот сиёсати субъектлари аҳборот ёрдамида инсонларнинг онги, руҳияти, хулқи ва фаолиятига ўз манбаатларини кўзлаган ҳолда ҳам таъсир кўрсатишлари мумкин.

Аҳборот сиёсати ҳокимият ва жамият ўртасидаги мураккаб икки томонлама алоқа жараёни сифатида, оммавий онгни шакллантиришнинг, фуқароларни ҳокимиятнинг фаолиятидан ҳабардор қилиш, ички ва ташки сиёсат масалаларида расмий позициясини тарқатишнинг энг муҳим канали сифатида мафкуравий хусусиятга эга бўлмаслиги мумкин эмас. Бугунги кун воқеалари, шунингдек, давлатчиликнинг илгари мавжуд бўлган барча шаклларининг тарихий тажрибаси бир хақиқатни сўзсиз тасдиқлайди – давлат аҳборот сиёсати

сиёсий таъсирнинг самарали воситаси, давлатнинг сиёсий мақсадларига эришиш воситаси бўлиб келган ва шундай бўлиб қолади.

- Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Маҳаллий ва хорижий илмий адабиётларда давлатнинг аҳборот сиёсатига турлича таъриф берилади, бироқ мазмунига кўра, ушбу сиёсатнинг моҳиятини аниқлашда кескин тафовут кузатилмайди. Farb мамлакатларида давлатнинг жамоатчилик онгини бошқариш функцияси коммуникацион сиёсат тушунчаси билан белгиланади, сўнгги вақтларда эса медиасиёсат атамаси тобора кенгроқ кўлланилмоқда.

Россиялик мутахассис В.Д. Попов давлат аҳборот сиёсатини "аҳборот ҳокимияти" категорияси орқали "сиёсат субъектларининг давлат ва фуқаролик жамиятияни манбаатлари йўлида инсонларнинг онги, руҳияти, уларнинг хатти-харакати ва фаолиятига аҳборот ёрдамида таъсир кўрсатиш қобилияти ва имкониятлари" сифатида таърифлайди [1].

Кенгроқ маънода эса, "давлат ва фуқаролик жамиятияни манбаатларини кондирадиган ҳамда давлат ва фуқаролик жамиятияни уларнинг вакиллари ўртасида ижодий, конструктив мулокотни таъминлашга қаратилган

ахборотни ишлаб чишиш ва тарқатиш билан боғлиқ инсонларнинг ҳаётий фаолиятининг алоҳида соҳаси” [2].

Тез кунларда қабул қилиниши кутилаётган Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси ягона ахборот сиёсати концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги карори лойиҳасида эса ахборот сиёсатга “фуқароларнинг сўз эркинлиги ва конституциявий хукуқини таъминлашга қаратилган тизимли чоратадбирлар, давлат маблағлари ва меъёллари мажмуи, ахборотдан фойдаланиши, давлат ва фуқаролик жамияти манфаатларини қондирадиган ахборотни кўпайтириш ва тарқатиш, улар ўртасида конструктив мулоқотни таъминлаш, жамиятнинг ахборот соҳасини ривожлантириш, шунингдек, давлат органлари, жамоат бирлашмалари, хусусий тузилмалар ва ахборот профили ташкилотларининг ахборот оқимлари ва ахборот фаолиятини тартиби солиши”, деб таъриф берилган.

- **Тадқиқот методологияси.** Тадқиқотда совет ҳокимияти ахборот сиёсатини ёритища тарихийлик ва хронологик тамоил, қиёсий ва мантикий таҳлил усуулларига таянилди

- **Таҳлил ва натижалар.** Давлат ахборот сиёсатининг оммавий жамоатчилик онгини шаклантириш функциясини бажариши ҳақидаги мулоҳазалардан келиб чиқиб, иккита савол кўйиши мумкин. Давлат ахборот сиёсати муайян шароитларда ҳокимият тепасидаги имтиёзли синфнинг ўзига хос ҳимоя воситаси, ҳокимиятнинг мавжуд ҳолатини саклаб қолишига уриниши сифатида оммавий жамоатчилик фикри манфаатларига зид келмайдими ва жамиятдаги ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар жараёнларини секинлаштирумайдими? Давлат ахборот сиёсати мавжуд ҳокимиятнинг манфаатлари йўлида ташвиқот ўтказиши функциясини бажармайдими?

Юкоридаги саволларга собиқ совет ҳокимияти ахборот сиёсатининг эволюциясини бевосита оммавий ахборот воситалари мисолида ретроспектив таҳлил қилиш орқали жавоб топишга ҳаракат қиласиз. Чунки айнан оммавий ахборот воситалари демократияни амалга оширишнинг энг муҳим воситаларидан биридир. Халқнинг кундалик ҳаётнинг долзарб масалалари бўйича оммавий ахборот воситаларида ифодаланган мушоҳадалари давлат сиёсатининг шаклланишига сезиларли таъсир кўрсатади, хукуматнинг ўзини танлашда, бошқарув ва назорат қилиш жараённида муҳим ўрин тутади.

Буни яхши тушунган совет ҳокимияти ўзининг ахборот сиёсатини шакллантириши “аксилинқиlobий” матбуотга қарши таъкидан бошлаган. Россия Совет Федератив Социалистик Республикаси (РСФСР) Халқ Комиссарлари Кенгаши (ХКК) нинг 1917 йил 27 октябрь (7 ноябрь) даги “Матбуот тўғрисидаги” декрети очик сиёсий репрессия туслига эга эди [3]. Ушбу ҳужжат асосида 1917 йил ноябрیدан 1918 йил июняига қадар ёпилган ёки фаолиятини тўхтатган муҳолифат газеталарининг сони 470 тага етган [4].

Мазкур ҳужжатда “Янги тартиб мустаҳкамланиши билан матбуотга ҳар қандай маъмурӣ таъсир тўхтатилади, шу соҳага оид энг кенг ва прогрессив қонунга кўра, унинг учун тўлиқ эркинлик ўрнатилади” [5], дейилганига қарамасдан, ваъда қилинган меъёрий ҳужжат 1990 йилга қадар қабул қилинмади. Унгача совет ҳокимиятининг ахборот соҳасидаги сиёсати турли хукукий меъёрлар, партия ва хукумат қарорлари, маҳкама бўйруклари ва кўрсатмалари билан тартиби солиқ келинди.

Ҳокимият кўлга олиниши билан, Ҳарбий Инқиlobий қўмита (ВРК) томонидан матбуот бўйича комиссар тайинланди. Қўмитанинг 1917 йил 27 октябрда матбуотчиларга мурожаатида: “Бирор бир мурожаатнома, бирорта матбуот органи ишчи, солдат ва дехқон депутатлари Советининг ваколатли комиссари рухсатисиз

чиқмаслиги лозим”, деб таъкидланган эди [6]. Шу билан биргалиқда янги хукуматнинг таъсирида бўлмаган матбуот нашрларини даромаддан маҳрум қилиш чоралари ҳам кўрилган. ХКК нинг 1917 йилнинг 8 ноябридаги “Босма эълонларга монополия ҳакида”ги декретига кўра, эълонларни чоп этиш хукуки факатгина хукумат нашрларига берилиди [7].

1918 йилнинг 28 январида (10 февраль) яна бир декрет билан маҳсус орган – Матбуот инқилобий трибунали ташкил этилиб, унга матбуотдан фойдаланган холда амалга ошириладиган жиноят ва хатти-ҳаракатлар учун жазо тайинлаш вазифаси юқлатилган [8].

Сўз эркинлиги муаммосини ҳал қилиши лозим бўлган асосий ҳужжат – 1918 йилда қабул қилинган РСФСР Конституциясида матбуот эркинлигини чегаралаш меҳнаткашларнинг, аҳоли кўпчилигининг манфаати билан оқланган эди [9]. 1918 йилги Туркистон Совет Республикаси Конституцияси амалда РСФСР Конституциясининг андозаси бўлиб, унда матбуот эркинлиги масаласи худди шу тарзда чегаралаб кўйилди [10]. Шу тарика совет ҳокимияти ўз фаолиятининг бошиданоқ матбуот эркинлигининг уч асоси – ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маънавий эркинлигини чеклаш сиёсатини юрита бошлади.

1917 йил 29 декабрда (1918 йил 11 январь) совет ҳокимияти томонидан “Давлат нашриёти ҳақида”ги декрет нинг қабул қилиниши марказлаштирилган нашриёт тизимини яратиш йўлида ташланган илк қадам бўлди. Унга кўра, Халқ Комиссарларни ва муассасалар кошидаги нашриётлар давлат ҳокимияти органларига айлантирилди [11].

Мамлакатда бир партияли тизим қарор топгач, РКП(б) матбуотнинг барча муаммоларини ҳал қилишни ўз зиммасига олди. 1919 йилда РКП(б) нинг VIII съезди қарорида [12] тилга олинган “партия ва совет матбуоти” деган номнинг ўзи советларнинг бу борадаги режаларини намойиш этарди. Шу вактдан бошлаб партия матбуотнинг вазифалари, хусусияти, бутун фаолиятини белгилаб беришни бошлади, ўзгача фикр билан кураш жараёнда партияниг оммавий ахборот воситаларига таъсири кучайиб борди.

1919 йилнинг 21 майида Бутунроссия Марказий Ижроия Қўмитаси томонидан “Давлат нашриёти тўғрисида” Низом тасдиқланиб, нафақат бутун нашриёт ишини назорат қиласиган, балки мамлакатда цензуранинг асосий куролига айланган хукумат органи – Госиздат (Давлат нашриёти) ташкил этилди [13].

Туркистонда ҳам давлатнинг матбуотга оид сиёсати айни шу йўсунда шаклланиб борди. Туркистон АССР Давлат нашриёти 1920 йилда ташкил этилган. 1924 йилнинг 24 нояброда Ўзбекистон ССР Маориф Халқ Комиссарлиги Коллегиясининг қарори, Ўзбекистон Коммунистик партияси Марказий қўмитаси фармони билан ЎзССР Давлат нашриёти (1964 йилдан “Ўзбекистон нашриёти”) ҳакида Низом тасдиқланган. 1925 йилда ЎзССР Инқилобий Қўмитаси Пленумининг 16-сонли қарорига кўра Ўзбекистон Давлат нашриёти ҳакида Низом тасдиқланган [14].

Иқтисодий ҳаробалик, ҳар томонлама ва чукур инқиroz большевикларни янги иқтисодий сиёсатга (ЯИС) ўтишга мажбур қилди, бу эса мамлакатнинг сиёсий, ижтимоий ва маданий ҳаётида жонланишига олиб келди: хусусий нашриётлар, газета ва журнallар пайдо бўлди, “мустакил матбуот” тушунчаси муомалага кириб келди, ўзгача фикрлаш фаоллашди. 20-йилларнинг бошларида чоп этилган бир қатор журнallарда матбуотга оид конун, журналистларнинг хукуқ ва мажбуриятларини меъёрга солиши ҳақидаги фикрлар илгари сурила бошланди, аммо уларни амалга ошириш имкони мавжуд эмас эди.

Бирок ҳарбий коммунизм гояларига кўнишиб қолган большевиклар вужудга келган вазият уларнинг эришганларини йўкка чиқаришини тушуниб етган большевиклар сиёсий йўналишни ва жамиятдаги цензура режимини кучайтириш йўлига ўтди. 1922 йилнинг 6 июнида ХКК томонидан матбуот эркинлигини чеклашда катта роль ўйнаган “Адабиёт ва нашриёт ишлари бўйича Боз башкарма (Главлит) ҳакида Низом” қабул қилиниб, босма асарларнинг барча турдаги цензурасини бирлаштириш мақсадида Маориф Халқ Комиссарлиги қошида адабиёт ва нашриёт ишлари бўйича Боз башкарма ва губерния халқ таълими бўйимлари қошида унинг маҳаллий органлари таъсис этилади [15]. 1922 йил 2 декабрда қабул қилинган “Главлит ва унинг маҳаллий органларининг хукуқ ва вазифалари” йўриқномасига кўра, у жамиятнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида тартиб ўрнатиш бўйича жуда катта ваколатларни ўз зиммасига олган [16].

Главлит 1922 йилдан то 1991 йилга кадар турли номлар остида босма асарлар цензураси ва оммавий ахборот воситаларида давлат сирларини саклашни амалга ошириб келди. Шу билан биргаликда Главлит цензура аппарати ҳакидаги ҳар қандай ахборотнинг тарқалишига ҳам қарши кураш олиб борган, бу эса совет ҳокимиятининг ахборот тарқатилиши устидан ўрнатган катыйи назоратини ошкор танқид қилиш имкониятини ўйқа чиқараради.

1925 йилда қабул қилинган “Халқ маориф комиссарлиги ҳакидаги Низом”, гарчи унда “цензура” сўзи тилга олинмаган бўлса-да, Главлитнинг цензура ташкилоти сифатидаги имкониятларини янада кенгайтириди [17].

ВКП (б) Марказий Кўмитасининг 1926 йилда қабул қилинган “Матбуот масалаларини башкарадиган совет органлари ҳакида”ти, 1927 йилги “Матбуотга

партияви раҳбарликни яхшилаш ҳакида”ги қарорлари билан ахборот устидан партияви цензурани ўрнатиш учун амалий қадам кўйди. Партия кўмиталарининг Матбуот бўйимлари тарқатилаётган ҳар бир ахборотнинг мафкуравий мазмунини кузатиб бориши лозим эди.

1930 йилда ВКП (б) Сиёсий бюросининг “Главлит ҳакида”ти навбатдаги қарорининг қабул қилиниши совет ҳокимияти ахборот сиёсатида цензуранинг кучайишига навбатдаги қадам бўлди. Унга кўра, ташкилотнинг функциялари янада кискартирилди ва босма материаларнинг сиёсий-мафкуравий ҳамда ҳарбий-сиёсий нутқай назардан олдиндан кўриб чиқиш учун Главлит ва сиёсий муҳаррирларнинг “вакиллар институти” ташкил этилди.

1931 йилнинг 6 июлида ХКК томонидан “РСФСР Адабиёт ва нашриётлар ишлари бўйича Боз башкармаси ва унинг маҳаллий органлари ҳакида Низом” [18] давлат амалиётида биринчи бўллиб бир вақтнинг ўзида ва ошкора партия назорати остидаги дастлабки ва кейнинги цензурани жорий қилди.

Матбуот устидан назоратнинг тўлиқ партия қўлига ўтиши ВКП (б) МК Ташкилий бюросининг 1937-йил 21-октябрдаги “Марказий, республика, вилоят ва вилоят газеталарини цензура килиш тўғрисида” ги фармони билан амалга оширилди. Унга кўра, цензорлар тегишли партия кўмиталари томонидан тасдиқланган ишчилар номенклатурасига киритилди. Шу тариқа давлат цензура аппарати ўрнини партия эгаллай башлади, ахборот хизмати совет жамиятининг соғ синфий табақаланиш тамойиллари асосида яратилди.

30-йиллар совет матбуоти энг оммавий даври бўлди: унинг фаолиятида ишчи ва дехқонлар иштирок этди, энг кўп газета ва журнallар нашр этилди. Буни Ўзбекистонда 20-40 йилларда чоп этилган нашрлар сонининг киёсий таҳлилидан ҳам кўриш мумкин [19]:

Йиллар	Нашрлар сони	Бир марталик тираж (минг экз.)
1924	26	Маълумот йўқ
1925	26	111
1940	200	893

- **Хулоса ва таклифлар.** Матбуотнинг оммавий маданиятнинг мухим элементига айланиши турли ижтимоий кучларга ундан оммани манипуляция килиш, уларнинг онгига босим ўтказишнинг кучли механизми сифатида фойдаланиш имконини берди. Жумладан, СССРда ҳокимиятга манзур бўлган ахборотнинг ўйдирилиши, унинг оммавий ишлаб чиқарилиши тоталитар давлат цензура режимининг ажралмас кисмига айланди, гуллаб-яшинади ҳамда шахсга сифинишнинг шаклланиши учун қулай замин яратди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, собиқ СССР юритган ахборот сиёсати оқибатида матбуот ягона мафкуравий ва ташкилий схема бўйича яратиладиган оммавий ахборот воситаларининг кўп миллатли табакалаштирилган тизими сифатида шаклланди. Совет матбуоти партиянинг мафкуравий ва ижтимоий бўйруғини бажариб, Совет давлатини куришда, раҳбарларнинг авторитар тамойилларини ўрнатишида фаол иштирок этди, партия қарорларини амалга ошириш учун астойдил курашди.

АДАБИЁТЛАР

- Попов В.Д. Государственная информационная политика: состояние и проблемы формирования. Массовые информационные процессы в современной России: Очерки / Отв. ред. А.В. Шевченко. – М.: Изд-во РАГС, 2002. – С. 20.
- Информационная политика: Учебник/ Под общ. ред. В.Д. Попова. – М.: Изд-во РАГС, 2003. – С. 38.
- Декреты Советской власти. Т.І. – М.: Госиздат-во полит. литературы, 1957. – С. 24-25.
- Жирков Г.В. История цензуры в России XIX-XX вв. Учебное пособие. – М.: АСПЕКТ ПРЕСС, 2001// <http://evartist.narod.ru/text9/37.htm>
- Декреты Советской власти. Т.І. – М.: Госиздат-во полит. литературы, 1957. – С. 25.
- Россия 1917 года в эго-документах: Дневники / Авт.-сост. Н.В. Суржикова, М.Б. Ларионова, Е.Ю. Лебеденко и др. – М.: Политическая энциклопедия, 2017. – С. 96
- Декреты Советской власти. Т.І. – М.: Госиздат-во полит. литературы, 1957. – С. 54-56
- Ўша жойда. – Б. 432-434
- Кукушкин Ю. С., Чистяков О. И. Очерк истории Советской Конституции. – Изд. 2-е, доп. – М.: Политиздат, 1987. – С. 244
- Ўз МА, 17-фонд, 1-рўйхат, 39 - йигмажилд, 17-18 вараклар

11. Собрание узаконений и распоряжений правительства за 1917-1918 гг. Управление делами Совнаркома СССР. – М. 1942. – С.221-222.
12. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. 1917-1922. 9-е изд. Т. 2. – М.: Издательство политической литературы, 1983. – С. 115-116.
13. Жирков Г.В. История цензуры в России XIX-XX вв. Учебное пособие. – М.: АСПЕКТ ПРЕСС, 2001/// <http://evartist.narod.ru/text9/37.htm>
14. Ўз МА, 2627-фонд, 2-рўйхат, 1344 - йиғмажилд, 107- варак.
15. Положения о Главном Управлении по делам литературы и издательства // <http://opentextn-p.ru/censorship/russia/sov/law/snk/1922/?id=3382>
16. Цензура в Советском союзе 1917-1991. Документы. Сост.: А.В. Блюм. – М. РОССПЭН, 2004. – С. 36-37.
17. Положение о Народном комиссариате просвещения Р.С.Ф.С.Р. // <http://www.consultant.ru/cons/cgi/online-cgi?req=doc&base=ESU&n=9503#ZBCRZuSIEBfeKym4>
18. История советской политической цензуры. Документы и комментарии. – М.: “Российская политическая энциклопедия” (РОССПЭН), 1997. – С. 57–59
19. Ўз МА. Р-2627 фонд, 1 - рўйхат, 196-йиғмажилд.



Азиза ШОТЕМИРОВА,
Самарқанд давлат университети асистенти
E-mail: sanjar.djumanov@bk.ru

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Худаяров Ў.Ж тақризи асосида

THE WORKS DONE TO RAISE THE STATUS OF WOMEN IN SOCIETY AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Abstract

During the years of independence, extensive work has been done to increase the prestige of women in society. As a result, significant progress has been made. Since 2016, these events have reached a new level. The measures taken by the Government have played an important role in this. This article is devoted to the work done to enhance the image of women in Uzbekistan at a new stage of development of Uzbekistan and their results.

Keywords: women's Committee, ensuring women's political activism, Presidential Decrees and Resolutions, women in need of housing, "Women's Notebook".

ПРОДЕЛАНА РАБОТА ПО ПОВЫШЕНИЮ СТАТУСА ЖЕНЩИНЫ В ОБЩЕСТВЕ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

За годы независимости проделана большая работа по повышению авторитета женщин в обществе. В результате был достигнут значительный прогресс. С 2016 года эти мероприятия вышли на новый уровень. Важную роль в этом сыграли меры, принятые правительством. Данная статья посвящена проделанной работе по повышению статуса женщины Узбекистана на новом этапе развития Узбекистана и их результатам.

Ключевые слова: комитет женщин, обеспечение политической активности женщин, указы и постановления президента, женщины, нуждающиеся в жилье, женская четвертадь.

ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ЖАМИЯТДА АЁЛЛАР НУФУЗИНИ ОШИРИШ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР

Аннотация

Мустақиллик йилларида жамиятда хотин-кизлар нуфузини ошириш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Натижада, салмоқли ютуқлар кўлга киритилди. 2016 йилдан эътиборан эса мазкур тадбирлар янги босқичага кўтарилид. Бунда Ҳукумат томонидан амалга оширилган тадбирлар муҳим аҳамиятга эга бўлди. Мазкур мақола Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида Ўзбекистонда аёллар нуфузини ошириш борасида амалга оширилган ишлар ва уларнинг натижаларига бағишланган.

Калил сўзлар: хотин-кизлар қўмитаси, аёлларнинг сиёсий фаоллигини таъминлаш, Президент Фармони ва Қарорлари, уй-жойга муҳтоҷ хотин-кизлар, "Аёллар дафтари".

Кириш. Мустақиллик йилларида мамлакатимизда аёллар нуфузини ошириш ва уларга қулай шароит яратиш мақсадида кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Ҳусусан, 1995 йилда республика аёлларининг давлат ва жамият курилишидаги ўрнини оширишга бағишланган маҳсус Фармон қабул қилинди. Натижада республика Хотин - кизлар қўмитаси раиси Бош вазир ўринbosари мақомига эга бўлди. Жойларда хотин-кизлар қўмиталарининг раислари ижро ҳокимияти таркибида киритилиб, ҳоким ўринbosарлари сифатида ўз фаолиятини бошлади[7]. Бундан ташқари, аёлларнинг сиёсий фаоллигини таъминлаш мақсадида 2004 йилда «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида»ги Қонунга тегишли ўзгартишлар киритилиб, сиёсий партиялардан кўрсатиладиган депутатликка номзодларнинг 30 фонзи хотин-кизлардан иборат бўлиши шартлини белгилаб кўйилди[3]. Шу ва бошқа тадбирлар жамиятда аёллар нуфузини оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. 2016 йилдан эътиборан, мазкур тадбирлар янги босқичага кўтарилид. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралда эълон килинган "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида"ти Фармонида ушбу масалага алоҳида эътибор қаратилди. Ҳусусан, мазкур Фармоннинг

ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор ўйналишлари номли тўртингчи кисмida хотин-кизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларни давлат ва жамият бошқарувидаги ўрнини кучайтириш, хотин-кизлар, касб-хунар коллежи битирувчи кизларининг бандлигини таъминлаш, уларни тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб этиш, оила асосларини янада мустаҳкамлаш каби масалалар ўз аксини топди[4]. Бу эса ўз навбатида хотин кизлар ҳукукларини химоя қилишда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Тадқиқот методологияси. Бу пайтда Республикада хотин-кизларни ҳар томонлама кўллаб-куватлаш, кобилияти ва салоҳиятини рўёбга чиқариш бўйича салмоқли ишлар амалга оширилди. Жумладан, республикамизнинг барча худудларида хотин-кизлар тадбиркорлик марказлари ташкил этилди, хотин-кизларга тадбиркорлик, хунармандлик, касбга қайта тайёрлаш, бандлини таъминлаш юзасидан амалий ёрдамлар кўрсатилди. Жумладан, биргина 2020 йилнинг ўзида Хотин-кизлар тадбиркорлик марказлари томонидан 28 мингга яқин хотин-кизларга амалий ёрдам кўрсатилди, шунингдек, беш муҳим ташаббус доирасида 21 минг 500 нафар киз киска муддатли касб-хунар курсларида ўқитилди. Амалга оширилган мазкур тадбирлар туфайли тадбиркорлик фаолиятини йўлга кўйган аёллар сони 2020

йилда аввалги йилдагига қараганда қарийб 45 минг нафарга кўпайди[8].

Бундан ташқари, оғир ахволга тушиб қолган хотин кизларни кўллаб кувватлаш бўйича ҳам бир канча ишлар амалга оширилди. Жумладан, 2018 йил 12 апрелда “Оғир ижтимоий вазиятга тушиб қолган хотин-кизларга, ногиронлиги бўлган, кам таъминланган, фарзандларини тўлиқсиз оиласда тарбиялаётган ва уй-жой шароитини яхшилашга муҳтоҷ оналарга арzon уй-жойлар бериш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳакида”ги Вазирлар Маҳкамасининг карори қабул қилинди. Мазкур Карор асосида Хотин-кизлар ва оиласи кўллаб-куватлаш жамоат фонди маблағлари хисобидан ҳар ўили республика бўйича мингдан зиёд оғир турмуш шароитида яшаётган, ногиронлиги бўлган, уй-жойга муҳтоҷ хотин-кизларга берилган уйларнинг 10 фоизлик бошланғич бадал тўловлари тўлаб берилиши йўлга кўйилди[8].

Таҳлил ва натижалар. 2020 йилдан эътиборан хотин-кизларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан кўллаб-куватлаш мақсадида уларни “Аёллар дафтари”га олиш орқали кўмак бериш тизими ҳам йўлга кўйилди. Ижтимоий химояга муҳтоҷ, ишсиз, меҳнатга қобилиятсиз, ўзгалар парваришини талаб киладиган, I ва II гурух ногиронлиги бўлган хотин-кизлар мазкур дафтардан жой олди. Шу билан бир вақтда ушбу рўйхатга киритилган аёлларни кўллаб-куватлаш ишлари ҳам олиб борилди. Жумладан, Ўзбекистон Касаба уюшмалари Федерацияси томонидан тегишли Вазирлик ва ташкилотлар, маҳаллий ҳокимликлар билан ҳамкорлиқда ўтган давр мобайнида “аёллар дафтари”нинг мавжуд тўққиз тоифаси бўйича рўйхатта олинган хотин-кизларга ҳар томонлама ёрдам берилди. Хусусан, 2021 йилда 900 мингга яқин хотин кизларга ижтимоий-иқтисодий, тиббий, хуқукий ва психологияк ёрдамлар кўрсатилди. Бу мақсадлар учун эса бюджетдан 2 триллион сўм маблағ йўналтирилди. Жумладан, 18 минг нафар аёлларга уй-жой ҳарид килишлари учун 400 миллиард сўм имтиёзли кредитлар ажратилди. Бокувчисини йўқотган аёлларнинг фарзандлари учун боғча харажатларини бюджетдан коплаш тартиби жорий этилди[1].

Мазкур даврда ташаббускор ва етакчилик қобилиятига эга аёлларни жамиятдаги нуфузини ошириш борасида ҳам кўплаб ишлар амалга оширилди. Жумладан, 2017-2022 йиллар давомида бу борада бир канча Қонунлар, Президентнинг Фармон ва Каорлари қабул қилинди, биринчи маротаба Олий Мажлис Сенатида Хотин кизлар ва Гендер тенглик масалалари кўмитаси ташкил этилди. Амалга оширилган ушбу тадбирлар

ташаббускор ва етакчилик қобилиятига эга хотин-кизларнинг нуфузини оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлди. Хусусан, 2022 йилга келиб 1 минг 400 га яқин аёллар республика ва вилоятлар 43 мингдан зиёди эса туман ва шаҳарлар даражасидаги раҳбарлик лавозимларида фаолият олиб борди[2].

Бундан ташқари, ушбу йилларда аёлларнинг олий давлат вакиллик органларидағи иштироки ҳам ошиб борди. Жумладан, Олий Мажлис Қонунчилик палатасига сайланган 150 нафар депутатнинг 48 нафари ёки 32 фоизини хотин-кизлар ташкил этган бўлса, Сенатда бу кўрсаткич қарийб 25 фоизга етди. Маҳаллий Кенгашлар депутатларининг 31 фоизи ҳам ташаббускор аёллардан иборат бўлди. Мазкур натижалар туфайли Ўзбекистон парламенти аёл депутатлар сони бўйича дунёдаги 190 та миллий парламент ўртасида 2016 йилдагига нисбатан 2021 йилда 37-погонага кўтарилди[8]. Бу эса ўз навбатида жамиятда аёллар нуфузини ошириш ишларида катта аҳамиятга эга бўлди.

Амалга оширилган кўплаб ишларга қарамасдан, бир канча муаммолар ҳам сақланиб қолганлигини айтиб ўтиш мумкин. Жумладан, 2018 йилга қадар кўрилган амалий чораларга қарамасдан, оғир турмуш шароитида яшаб, иш билан таъминланмаган 13 мингдан зиёд хотин-кизлар борлиги аниқланган[6]. Аёллар саломатлигини сақлаш борасида ҳам бир канча ҳолатларни айтиб ўтиш мумкин. Жумладан, 2021 йилдаги ҳолатта кўра, Сурхондарё вилоятининг Олтинсой туманидан туғиши ёшидаги аёлларнинг 30 фоизида камқонлик аниқланган. Бундан ташқари, хотин-кизлар ўртасида нафас олиш, ҳазм килиш аъзолари, юрак кон-томир касалликлари ҳам кўп эканлиги маълум бўлди[5].

Хулоса ва тақлифлар. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида амалга оширилган тадбирлар натижасида жамиятда аёлларни кўллаб кувватлаш ва уларнинг нуфузини ошириш бўйича кенг микёсли ишлар амалга оширилди. Натижада, бу борада салмоқли ютуклар кўлга киритилди. Хусусан, жамиятда хотин-кизлар нуфузини ошириш бўйича янги норматив-хукукий хужжатлар қабул қилинди, кўплаб кам таъминланган ва ёрдамга муҳтоҷ хотин-кизларга ёрдам кўрсатилди, бу бўйича эса алоҳида тизим йўлга кўйилди. Бундан ташқари, Ҳукумат томонидан амалга оширилган ишлар натижасида масъулиятли давлат лавозимлари ва олий давлат вакиллик органларидағи аёлларнинг салмоғи сезиларли даражада ошди. Шу ва бошқа омиллар жамиятда хотин-кизлар нуфузини ошириш борасидаги ишларда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

АДАБИЁТЛАР

1. Аёл қадри улугланган юрга тинчлик ва фаровонлик барқарор бўлади/ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-кизлар кунига бағишлиланган тантанали марсимдаги нутқи/ Халқ сўзи, 2022 йил 8-март, № 50 (8112) сон.
2. Рахимова Д. Опа-сингилларимиз муаммоларини ҳал этишда катта самара бераётган янги тизим /Халқ сўзи, 2022 йил 6-март, № 49 (8111) сон
3. “Ўзбекистон республикасининг айрим қонун хужжатларига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. <https://lex.uz>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралда эълон қилинган “Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ти Фармони. lex.uz
5. <https://president.uz/uz/lists/view/4186>
6. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy-28-12-2018>
7. <https://parliament.gov.uz/uz/events/fractions/7429/>
8. <https://strategy.uz/index.php?news=1254>